


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI**



O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**“DAK ga tavsiya etaman”
Magistratura bo'limi boshlig'i**

 **I. Ikromov**
“ ” 2017-yil

**“DAK ga tavsiya etaman”
kafedra mudiri**

 **Sh. Abdurahmonov**
“ ” 2017-yil

MUHAMMADALIYEVA MADINA NOSIRJON QIZI

**O'ZBEK TILIDAGI KASB-HUNAR NOMLARINING LEKSIK-
SEMANTIK, DERIVATSION, LEKSIKOGRAFIK TADQIQI**

**5A120102 – Lingvistika (o`zbek tili) mutaxassisligi bo`yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



**Sh. Abdurahmonov,
f. f. n.**

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik manbalari va taraqqiyoti	8
1.1.Kasb va hunar soʻzlari tushunchasining lisoniy tavsifi xususida	8
1.2. Kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik manbalari.....	13
Bob boʻyicha xulosalar.....	24
2-bob. Oʻzbek tilidagi kasb-hunar nomlarining lugʻaviy-maʼnaviy tasnifi va tavsifi	25
2.1. Kasb-hunar nomlari leksik-semantik guruhlari va tahlili.....	25
2.2. Kasb-hunar nomlari guruhidagi maʼnaviy oʻzgarishlar	46
Bob boʻyicha xulosalar.....	50
3-bob. Oʻzbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksikografik xususiyatlari	51
3.1. Kasb-hunar nomlarining yasalishi tahlili	51
3.2. Oʻzbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksikografik talqini.....	66
3.3. Oʻzbek tilidagi kasb-hunar nomlarining nomlanish xususiyatlari.....	75
Bob boʻyicha xulosalar.....	81
Umumiy xulosalar.....	82
Foydalanilgan adabiyotlar.....	85
Ilova. Oʻzbek tili kasb-hunar nomlarining umumiy roʻyxati.....	88

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Kasb-hunar turlarini tanlash – inson turmushida eng muhim masalalardan biridir. Yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyati, jamiyatga ko`proq foyda keltirishi, hayot va oilada o`z o`rnini topish ko`p jihatdan kasb yoki hunarni to`g`ri tanlashiga bog`liq. Buning uchun yosh avlodda o`ziga yoqqan kasbga qiziqish hosil qilish uchun kasbiy ma`lumotlar bilan tanishtirish va kasblar haqidagi dunyoqarashini boyitish, shakllantirish lozim.

Har bir o`g`il qizning kasb-hunarli bo`lishi, ularning zamon talablariga mos yetuk shaxslar bo`lib yetishi davlat ahamiyatiga molik masaladir. Farzand tarbiyasi yo`lida tashlangan har bir to`g`ri qadam uning kelajakda o`z o`rnini topib ketishi uchun mustahkam asos bo`ladi.

Kasbga yo`naltirishda turli kasb-hunarlar va ularning o`ziga xosliklari haqida yoshlarga tushuncha berish hamda ularda individual imkoniyatlarga mos keladigan kasbga qiziqish uyg`otish muhim ahamiyatga ega.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqida fikr yuritib: **“Bizning maqsad-muddaomiz – bolalarni sog`-salomat, kasb-hunarli, ilmi bo`lishiga erishishdan iborat”**, – deb bejiz ta`kidlamaganlar.

O`zbek tilidagi tarixiy va zamonaviy kasb-hunar nomlari maxsus to`planmagan va lingvistik nuqtai nazaridan monografik tadqiq etilmagan. Xalq xo`jaligining turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy qatlamida xalqimizning asrlar davomida mashg`ul bo`lgan kasb-hunar nomlarini to`plash va ularning lisoniy: leksik-semantik, tarixiy-etimologik, derevatsion, leksikografik va qo`llanish xususiyatlarini o`rganish tilshunoslik faning muhim masalalaridan biridir. Shu bois o`zbek tilidagi kasb-hunar nomlari tadqiqiga doir mazkur dissertatsiyamiz dolzarblik kasb etadi.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlari S.Ibrohimov¹, M.Asomiddinova², X.Baqoyeva¹, T.Tursunova (Dadaxonova)²,

¹ Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1959. – II-III т. – 456 б.

² Асомиддинова М. Назавания одежди и ее частей в узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент. 1969.

N.Usmonova³, Q.Sapayev va O.To`raqulovalar<sup>4</sup> tomonidan kasb-hunar leksikasi doirasida qisman tadqiq etilgan bo`lsada, o`zbek tilidagi kasb-hunar nomlari lingvistik nuqtai nazardan monografik aspektda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksik-semantik, derivatsion, leksikografik xususiyatlarini tarixiy va zamonaviy aspektlarda tadqiq etish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari. Biz dissertatsiyamizning mavzu-mohiyatidan kelib chiqib, tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo`yildi:

1. Kasb-hunar nomlari tushunchasini izohlash.
2. Kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik manbalariga ko`ra tasnifi va tahlilini berish.
3. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining lug`aviy-ma`naviy xususiyatlarini yoritish.
4. Ayrim kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik tahlil qilish.
5. Kasb-hunar nomlari tizimidagi dubletlik masalalarini izohlash.
6. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalarning ma`nodoshlik xususiyatlarini o`rganish.
7. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining derivatsion xususiyatlarini yoritish.
8. Kasb-hunar nomlarining leksikografik tahlilini berish.

Ishning obyekti va materiallari. Mahmud Qoshg`ariyning “Devoni lug`otit turk”, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”, “O`zbek tilining izohli lug`ati”, “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” va boshqa manbalardan to`plangan mustaqil izlanishlar asosida to`plangan kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalar MDning tadqiq obyektidir.

¹ Бакаева Х. Терминология золотого шития Бухары и Гиждувана: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.

² Турсунова (Дадахонова) Т. Лексика вышивалиного искусства в узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.

³ Усмонова Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореферати. – Тошкент, 1994.

⁴ Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984; Тўракулов О. Қўқон ва унинг атрофидаги қишлоқларда уй қурилишига оид сўзлар // Қўқон ДПИ ўзбек тили ва адабиёти тўплами, 1971. – Б. 8-10.

Tadqiqotning nazariy asosi va metodlari. Mavzu mazmun-mundarijasini nazariy jihatdan yoritishida A.Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, A.Nurmonov, B.Bafoev, Sh.Iskandarova, A.Sobirov kabi tilshunoslarning leksikologiyaga oid ilmiy tadqiqotlariga asoslandik.

Ishda leksik-semantik tahlil, etimologik tahlil, morfemik tahlil, nominatsion-motivatsion tahlil, statistik tahlil, derivatsion tahlil metod va usullaridan foydalandik.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ish quyidagi jihatlari bilan ilmiy yangilik kasb etadi:

1. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlari birinchi bor keng ko`lamda to`plandi va monografik tarzda tadqiq etildi.
2. Kasb-hunar nomlarining rivoji va shakllanish xususiyatlari belgilandi.
3. Kasb-hunar nomlari ma`noviy-mavzuiy jihatdan tasniflandi.
4. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik manbalari tadqiq qilindi.
5. Kasb-hunar nomlarining yasalishi, leksikografik xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning natijalari va materiallaridan umumiy o`rta ta`lim maktablarida, akademik litsey va oliy o`quv yurtlarida leksikologiya, til tarixi sohalarini o`qitishda, maxsus kurs va maxsus seminarlar o`tishda foydalanish mumkin.

**Ishning sinovdan o`tishi.** Dissertatsiya Namangan davlat universiteti o`zbek tili va adabiyoti kafedrasida yig`ilishi (2017-yil 24-may) da muhokama qilinib, himoyaga tavsiya etilgan.

**Natijalarning e`lon qilinganligi.** MD mavzusi yuzasidan ilmiy jurnal va to`plamlarda quyidagi maqolalar e`lon qilingan:

1. Савдогар лексемаси ва унинг синоним вариантлари хусусида // Тил ва таржима муаммолари: Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Наманган, 2011. – № 5. – Б. 109-111.

2. Айрим касб-хунар номларини ифодаловчи сўзлардаги маъно ўзгаришлари хусусида // Тил ва таржима муаммолари: Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Наманган, 2012. – № 6. – Б. 163-165.

3. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishda AKTning o`rni // Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish – o`zbek tili ta'limi samaradorligini oshirish omili: O`zbek tili doimiy anjumani o`n ikkinchi yig`ini materiallari. – Toshkent, 2013.– B. 78-79.

4. “Tijoratchi” so`zi etimologiyasi // Тил ва адабиёт таълими, 2013. – № 2. – Б. 48.

5. O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirishda axborot kommunikatsiyon texnologiyalaridan foydalanish // Илғор педагогик технологиялар – таълим сифатини ошириш омили: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Наманган, 2013. – Б. 126-127.

6. Фольклор ижодкорлари ва ижрочиларини ифодаловчи номлар хусусида // Иқтидорли ёшлар илмий журнали. – Наманган, 2013. – № 2. – Б. 89-91.

7. Касб-хунар номларини ўқитишда слайдлардан фойдаланиш // Тил ва таржима муаммолари: Илмий-услубий мақолалар тўплами. – Наманган, 2013. – № 7. – Б. 237-239.

8. Антропоним ва топонимлар учун луғавий асос бўлган касб-хунар номлари хусусида // Ономастика (Илмий мақолалар тўплами). – Самарқанд, 2014. – № 2. – Б. 74-77.

9. Касб-хунар номлари ясалишида анъанавийлик ва уларнинг лисоний тараққиёти // Илм уммонидан қатралар (Илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2014. – № 4. – Б. 37-44.

10. Фольклор ижодкорлари ва ижрочиларини ифодаловчи терминлар // Тил ва адабиёт таълими, 2014. – № 5. – Б. 43-44.

11. Ўзбек тилидаги санъатга оид касб-хунар номлари синонимияси // Илм уммонидан қатралар: Фарғона водийсидаги олий ўқув юртлари филология йўналиши иқтидорли талабалари ва магистрантларининг илмий мақолалари тўплами. – Наманган, 2015. – № 5. – Б. 49-54.

12. Ўзбек тилидаги касб-хунар номларининг айрим тарихий-этимологик ва деривацион хусусиятлари // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори, профессор Абдулҳамид Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилаётган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2016. – Б. 238–240.

13. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining derivatsion xususiyatlari // Илм уммонидан қатралар (Илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2016. – № 6. – Б. 24-29.

14. Navoiy asarlarida qo`llangan me`morchilikka oid kasb-hunar nomlari-ning leksik-semantik xususiyatlari // Филология ва замонавий педагогик технологиялар. – Наманган, 2016. – № 5. – Б. 85-89.

15. Кишиларнинг машғулоти ва иш тури тушунчасини ифодаловчи луғавий бирликлар хусусида // Ўзбекистонда филология илми ва таълими: натижа ва истиқбол. – Самарқанд, 2016. – № 3. – Б. 101-103.

16. Алишер Навоий асарларида касб-хунар номлари ва уларнинг ясалиш хусусиятлари // Илм уммонидан қатралар (Илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2017. – № 7. – Б. 7-10.

17. O`zbek tili sheva va lahjalarda kasb-hunar nomlari // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Ўзбекистонда хизмат кўрсатган халқ таълими ходими, филология фанлари доктори, профессор Абдулҳамид Нурмонов хотирасига бағишлаб ўтказилаётган Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2017. – Б. 137–139.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya hajman 87 bet bo`lib, kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati hamda O`zbek tili kasb-hunar nomlarining umumiy ro`yxatidan iborat.

1-bob. Kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik manbalari va taraqqiyoti

1.1. Kasb va hunar soʻzlarining lisoniy tavsifi

Tildagi lugʻaviy birliklar, shu jumladan kasb-hunar nomlari ham oʻz mavzu guruhlariga koʻra alohida semantik maydonni tashkil etadi.

Maʼlum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi soʻz va iboralar majmuiga **semantik yoki tushuncha maydoni** deyiladi.

Oʻzbek tilidagi shaxs nomlari maydoni doirasida kasb-hunar nomlari alohida mavzuiy guruhni tashkil etadi. Kasb-hunar nomlari mavzuiy guruhiga kishilarning mehnat faoliyati, doimiy mashgʻuloti va muayyan ish turini ifodalovchi leksemalar kiradi. Masalan, *dehqon, oʻqituvchi, hisobchi, tarbiyachi, vrach, duradgor, kosib* kabi.

Oʻzbek tilidagi kasb-hunar nomlari haqida soʻz yuritganda mazkur maʼnoviy guruh nomini ifodalovchi *kasb, hunar* va ularning juftlashuvi asosida yuzaga kelgan *kasb-hunar* soʻzlarining leksik-semantik xususiyatlariga toʻxtalish joiz.

Kasb arabcha *kasb(un)* soʻzidan koʻp maʼnoli *kasaba* feʼlining oʻz mehnati bilan mablagʻ topmoq maʼnosidan hosil qilingan boʻlib, arab tilida “*foйда*”, “*yutuq*”, “*maosh*” maʼnolarini anglatadi.¹ *Kasb* soʻzi hozirgi oʻzbek adabiy tilida quyidagi maʼnolarda qoʻllanadi:

1. Ish-faoliyatning maʼlum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar. *Bu kishi oʻzlari hosilot, kasblari agronom, kechki maktabda muallimlik ham qiladilar.* (Abdulla Qahhor. Qoʻshchinor chiroq-lari)

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2003. 2-ж. – Б. 197.

2. Umuman, odat qilingan ish; odat. *Molning tilini bilish ham o`ziga yarasha kasb ekan.* (O`lmas Umarbekov, Shonli avlod).¹

Demak, o`zbek tilida kasb so`zining ma`no doirasi toraygan bo`lib, kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg`uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat ma`nolarini anglatadi.

Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisosliklar bor. Masalan, *vrachlik* yo`nalishida *xirurg*, *dermatolog* va boshqalar.

Kasb shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.

Hunar asli arabcha bo`lib, *san`at*; *bilim*, *ko`nikma*, *mahorat*, *ustalik*; *kasb* kabi ma`nolarni anglatadi.

Hunar so`zining o`zbek tiliga tojik tilidagi shakli olingan bo`lib, asli “*layoqat*”, “*san`at*” ma`nolarini anglatadi. Keyinchalik kasb ma`nosini ham anglati boshlagan.² Demak, *hunar* va *kasb* so`zlari o`zaro ma`nodosh.

Hunar so`zi eski o`zbek adabiy tilida quyidagi ma`nolarda ishlatilgan:

1. Hunar, ish, yaxshi ish, hammaga ma`qul ish.
2. Mahorat, mohirlik.

Eski o`zbek adabiy tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida *hunar* asosidan yasalgan *hunarvar*, *hunariy*, *hunarkor*, *hunarmand*, *hunarparvar* kabi so`zlar ham iste`molda bo`lgan.³

Hozirgi o`zbek adabiy tilida esa *hunar* quyidagi ma`nolarni anglatadi:

1. Muayyan ko`nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg`ulot; kasb. *Hunar*, *hunardan unar*. (Maqol)

2. Biror ishdagi mahorat, san`at; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat. *Chekinish uchun ham hunar kerak, bu ham san`at talab qiladi.* (Oybek, Quyosh qoraymas)

3. Odat tusidagi ish-harakat. *Ammo eski hunaringizni qilib, otamga chaqsangiz, mendan shafqat kutmang!* (Mirmuhsin, Me`mor)

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –2-ж. – Б. 328.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2009. – Б. 280.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1985. – 4-ж. – Б. 203.

4. Bo`lmag`ur, kelishmagan xatti-harakat, qiliq, odat. *Abdushukur, ovozini bunchalik boshqacha qilishini kimdan o`rganding? Hunaringga balli-e..* (Oybek, Tanlangan asarlar)¹

Bundan ko`rinadiki, til taraqqiyoti davomida *hunar* so`zining ma`no doirasi kengaygan.

Kasb va *hunar* so`zlari juft holda *kasb-hunar* shaklida qo`llanganida kengroq tushuncha anglashiladi. “O`zbek tilining izohli lug`ati”da *kasb-hunar* so`zi berilmagan.

Tilmizdagi *kasb-kor*, *pesha* so`zlari ham *kasb*, *hunar* so`zlari bilan o`zaro ma`nodoshlikka ega.

Kasb-kor juft so`zi o`zbek tilida arabcha *kasb* “ish” ma`nosini anglatuvchi, tojikcha *kor* so`zlaridan tuzilgan bo`lib, *kasb-u kor* shakliga ham ega bo`lib, “*ish-faoliyat turi*”, “*ish-mashg`ulot*” ma`nosini anglatadi.²

Pesha esa eski o`zbek adabiy tilida *ish*, *amal*, *hunar*, *odat*, *san`at* ma`nolarini anglatgan bo`lib, hozirgi o`zbek adabiy tilida eskirgan so`z hisoblanadi.

Yuqoridagi lug`aviy birliklarning qo`llanish xususiyatlariga kelsak, ular etimologik jihatdan aynan bir tushunchani anglatmada, hozirda ma`no ko`lami nuqtai nazaridan ma`lum farqlarga ega.

Kasb so`zi oliy ma`lumotli mutaxassislariga, *hunar* lug`aviy birligi muayyan mehnat ko`nikmasiga ega shaxslarga, xususan, hunarmandlarga nisbatan qo`llanishi kuzatiladi hamda *kasb-hunar* juft so`zida esa har ikki leksemaga xos ma`nolarning umumlashgan, jamlangan holati ifodalanadi. Demak, *kasb-hunar* lug`aviy birligining ma`no ko`lami keng bo`lib, barcha turdagi kishilar mehnat faoliyati bilan bog`liq mutaxassislik, ixtisosliklarni ifodalaydi.

Ijtimoy hayot hamisha tilning rivojlanishiga turtki berib turgan, bu – tilning rivojlanishidagi yetakchi qonuniyat. Har bir tilning leksikasi doim harakatda, o`zgarishda bo`ladi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-ж. – Б. 561-562.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2003. – 2-ж. – Б. 197.

Til rivojlanib, o'zgarib turuvchi hodisadir. Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti natijasida o'zbek tilining kasb-hunar nomlari tarkibida eskirish, yangilanish kabi hodisalar yuz beradi. Bu, albatta, o'zbek tilining kasb-hunar leksikasiga, xususan, kasb-hunar nomlariga ham xos.

O'zbek tili lug'at tarkibida eskirgan va tarixiy kasb-hunar nomlari salmoqli o'rin tutadi. O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida kasb-hunar nomlari mikromaydonida ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no o'zgarishi kabi semantik o'zgarishlar ro'y bergan. Masalan, Alisher Navoiy asarlarida *adib* so'zi *tarbiyachi, murabbiy, o'qituvchi* ma'nolarini anglatgan:

*Ey Navoiy, uddek har dam ko'rarsen go'shmol,
Go'yiyo sen tifli rah, charxi muxolifdur adib.*

(Xazoyin ul-maoniy, II a-34.)

*Ne ayb, telba ko'ngulni qochursa nosihlar,
Bo'lurmu tiflg'a rag'bat adiblar sari.*

(Xazoyin ul-maoniy, II a-34.)¹

Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa adib so'zining yuqoridagi ma'nolari eskirgani holda *yozuvchi* tushunchasini anglatadi. Jonli muloqotda ko'proq *adabiy asarlar yozish bilan shug'ullanuvchi shaxs, yozuvchi* ma'nosida qo'llanadi. Masalan, *Bizga adiblar, shoirlar, haqiqiy jasur kurashchilar lozim.*(Oybek, Nur qidirib). *Hozirgi ko'zga ko'ringan yirik adib va shoirlar shu dargoh laboratoriyasidan yetishib chiqqan kishilardir.* (X. Yodgorov, Hayot to'lqinlari).² Ko'rinadiki, hozirgi o'zbek adabiy tilida so'zning ma'no tuzilishida o'zgarish ro'y bergan.

Baxshi so'zi eski o'zbek adabiy tilida *kotib, mirzo* ma'nolarini ham anglatgan:

...necha navisanda, necha baxshi, necha parvonachi jonlarig'a yetib, necha hiyla bila qutulurlar. (Munshaot, 129).

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 1-ж. – Б. 39.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 40.

*Sortqa garchi bu borur yaxshilar,
Turk ila ham yaxshi borur baxshilar.*

(Hayrat ul-abror, 133-23.)¹

Baxshi lugʻaviy birligi aslida sanskritcha *bhikshu* soʻzidan olingan boʻlib, *budda ruhoniysi, donishmandi; duoxon; darvish* degan lugʻaviy maʼnolarga ega. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *baxshi* soʻzi koʻpmaʼnoli boʻlib, quyidagi uch maʼnoda qoʻllanadi:

1) xalq qoʻshiqlari va dostonlarini yoddan kuylovchi shoir, oqin. Oʻzbek xalq baxshilari. *Dutorsiz baxshi boʻlmas, Yomonsiz – yaxshi.* (Maqol);

2) etnografik. irim-sirimlar qilib, duolar oʻqib, dam solib davolovchi tabib. *Jinga ishongan baxshini tinglaguncha, Chinga ishongan yaxshini tingla.* (Maqol). *Sotiboldining xotini ogʻrib qoldi. Baxshi oʻqidi. Allaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi.*(A.Qahhor, Bemor);

3) eski kitobiy. Buxoro xonligida qurilish uchun belgilangan mablagʻlarni hisob-kitobini nazorat qiluvchi lavozimli kishi. *Buxoro xonligida maʼmuriy binolar qurilishida mablagʻ hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urugʻ oqsoqollarini baxshi deb atashgan.* (Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi).²

Demak, *baxshi* soʻzinining maʼno tuzilishida ham torayish va kengayish hodisalari yuz bergan.

Yuqoridagi ikki kasb-hunar otlari tahlilidan koʻrinadiki, oʻzbek adabiy tili kasb-hunar nomlari mavzuiy guruhi juda boy boʻlib, u til tizimidagi sayqallanish, meʼyorlashuv mezonlari asosida hozirgi darajaga kelgan.

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 1-ж. – Б. 231.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –1-ж.– Б. 180.

1.2. Kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik manbalari va tarixiy taraqqiyoti

O`z “ichki imkoniyatlari” hisobigagina rivojlanadigan, uzoq va yaqin boshqa xalqlar bunyod etgan madaniy boyliklardan bahramand bo`lmagan “sof” millat, “tiniq” madaniyat, abadiy o`zgarmas “toza” til yo`q. Bo`lishi ham mumkin emas. Bizga ma`lumki, dunyoda sof tilning o`zi yo`q. Agar dunyoda sof til yapon tili bo`lsa, bu tili lug`at boyligining 10 foizini o`zlashma so`zlar tashkil etadi. Shunday ekan, o`zbek tilining rivojlanishida bir qancha tillar o`z ta`sirini o`tkazdi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilining lahja va shevalari lug`at tarkibida kasb-hunar nomlari mavzuiy guruhi salmoqli o`rin tutadi. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lug`viiy birliklar mavzuiy guruhi o`zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog`liq tarzda til taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo`lib, eskirish, yangilanish hamda shakliy va ma`noviy jihatdan sayqallanish asosida taraqqiy etib borgan. Tilimizning qadimgi turkiy adabiy til, eski turkiy adabiy til va eski o`zbek adabiy tili tarixiy bosqichlariga qaraganda hozirgi o`zbek adabiy tilida kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalarning miqdoran ko`pligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O`zbek tilida hozirda mavjud va qo`llanishda bo`lgan barcha kasb-hunar nomlari bu tilning o`ziniki, uning o`z boyligidir. Ammo bu leksik boylik o`zbek tilida birdan yuzaga kelgan emas. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlari ham boshqa lug`aviy qatlamlar, guruhlar kabi murakkab rivojlanish bosqichlarini bosib o`tgan. Ilk davrlarda u turkiy qabila tillari va ba`zi qadimiy chet tillarning ayrimlarini o`zida birlashtirgan holatda bo`lgan bo`lsa, keyinchalik fors-tojik, arab tillari va boshqa tillardan kasb-hunar nomlari qabul qilingan. Hozirgi o`zbek adabiy tili kasb-hunar nomlarining ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi.

O`zbek tili kasb-hunar nomlarining tarixiy-etimologik (kelib chiqish) jihatdan quyidagi turlarga bo`lish mumkin:

1. O`z qatlamga mansub kasb-hunar nomlari.
2. O`zlashma qatlamga mansub kasb-hunar nomlari.

O`zbek tili kasb-hunar nomlarini tarixiy-etimologik tahlilida, avvalo, tarixan, genetik jihatdan o`zbek tilining o`ziniki bo`lgan kasb-hunar nomlari aniqlab olinadi.

Bunday so`zlar o`zbek tilining tarixiy taraqqiyot bosqichlarida mavjud bo`lgan nomlardir. O`z qatlamga mansub kasb-hunar nomlariga qadimgi turkiy til, eski turkiy tilda va eski, hozirgi o`zbek tilida tilning o`z vositalari, ichki imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan kasb-hunar nomlari kiradi.

Qadim zamonlardan beri turkiy xalqlar, jumladan, o`zbeklar juda ko`plab kasb va hunarlar bilan mashg`ul bo`lishgan. Shu sababdan o`zbek tili leksikasida o`z qatlamga mansub kasb-hunar nomlari salmoqli o`rin tutadi.

Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asarida turkiy tillar leksikasiga mansub 7500 ta so`z izohlangan (boshqa hisobga ko`ra Mahmud Koshg`ariy izohlagan so`zlarning soni 9000 dan oshadi). Bu so`zlar turkiy xalqlar hayotining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Lug`at so`zligidan turkiylarga xos kiyim-kechak, uy-ro`zg`or, bezaklar, musiqa, asbob-uskuna, qurol-yaroq, xo`jalik buyumlarining nomlari, qarindoshlik atamalari, hayvon va o`simliklarning, kasallik va dorilarning nomlari, ilmiy, diniy, etnografik, geografik terminologiya, yil fasllari, oy va hafta kunlarining nomlari, tarixiy qahramonlarning ismlari, etnonim va toponimlar doirasida turkiy tillar, xususan, o`zbek tiliga xos bir necha tarixiy, arxaik, umumturkiy kasb-hunar nomlari ham berilgan va izohlangan. Unda keltirilgan bir qancha kasb-hunar nomlari hozirga qadar yetib kelgan.

Mahmud Koshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asaridagi *alim – olim, etukchi – etikdo`z, satg`uch - sotuvchi, temurchi – temirchi, qorug`chi – qo`riqchi* kabi kasb-hunar nomlarini nafaqat qadimgi turkiy tilda va eski o`zbek tilida, balki

ayrim fonetik o'zgarishlarga uchragan holda hozirgi o'zbek tilida ham qo'llanilayotganli fikrimiz dalilidir.¹

Quyida Mahmud Koshg'ariy asari misolida qadimgi va eski turkiy tildagi ayrim tarixiy va arxaik kasb-hunar nomlarini ko'rib chiqamiz.

Arqish – yurtidan uzoqqa ketgan kishiga yuborilgan xabarni yetkazuvchi odam, ya'ni chopar, elchi, xabarchi: *Aning arqishi keldi – Uning elchisi, xabarchisi keldi.* (DLT, 25- b.)

Arqish so'zi eski turkiy tilda *chopar* ma'nosidan tashqari quyidagi ma'nolarda ham qo'llangan: 1) *karvon*; 2) *avrash, afsun*.²

Demak, *arqish* so'zi o'tmishda omonim sifatida iste'molda bo'lgan.

Elbāshi – otboqar. *Otboqarni el bashi deytilar. Bu viloyat boshlig'i demakdir. Lekin otboqarni tushunadilar.* (DLT, 42- b.)

Ajaqchi – kulol.³ Bu kasb-hunar nomi *ajaq* – *idish* so'zidan *-chi* affiksi vositasida yasalgan. *Ajaqchi ajaq sirladi – kulol idish (kosa, lagan) ustiga gul solish, sirlash uchun tayyorgarlik ko'rdi.*(DLT, 467-b.)

Emchi – tabib. *Em – davo, dori; davolovchi tabibga emchi deyilishi shundandir.* (DLT, 44-b.)

Bu kasb-hunar nomi o'zining uzoq tarixiga ega. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *emchi* so'zi ko'p ma'noli bo'lib, quyidagi ikki ma'noda qo'llanadi:

1. *Emlovchi tabib, vrach, hamshira.*

2. *Etnografiyaga oid termin. Emi-dimi, duo, qoqiq-suquqlar bilan da'volovchi tabib.*

Bir man o'zim qoqimchi, Ham emchiman, alaschi. (Hamza)⁴

Dalillardan ko'rinadiki, *emchi* qadimiy lug'aviy birlik bo'lib, hozirga qadar tilimizda iste'molda. Hozirgi o'zbek adabiy tilida uning ma'no doirasi kengaygan,

¹ Қаранг. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.

² Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 25. Аксарият мисоллар мазкур луғатдан олинганлиги боис кейинги ўринларда ҳаволалар манба ва унинг саҳифаси ДЛТ, 4 шаклида матн ичида берилди.

³ “Девону луғотит турк” асарида олинган мисоллар имконият доирасида транскрипцияда берилди.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-жилд. – Б. 38.

hatto etnografik termin maqomini olgan. Shuningdek, “Devonu lugʻotit turk” da tabib maʼnosidagi *sagʻun*, *otachi* soʻzlari ham kuzatiladi.

Otachi – *tabib*. *Ot dori*, *davo* degani. Tabib maʼnosidagi *otachi* soʻzi shu asosdan yasalgan. (DLT, 187-b.)

Sagʻun – *tabib*. Bu kasb-hunar nomi *sogʻliq*, *sogʻlomlik* maʼnosini anglatuvchi *sagʻ* (hozirgi *sogʻ*) asosi bilan bogʻliq, yaʼni undan yasalgan. (DLT, 214-b.)

Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida *sagʻ* omonimik xarakterga ega boʻlib, *sogʻliq*, *sogʻlomlik* maʼnosidan tashqari quyidagi tushunchalarni ham anglatgan:

1) *oʻng*; 2) *aql*; 3) *ziyraklik*, *tiyraklik*; 4) *yung savaydigan savagʻich* kabi. (DLT, 213-b.)

Etmakchi – *novvoy*. Demak, *novvoy* maʼnosidagi mazkur soʻz *non* tushunchasini anglatuvchi *etmak* asosiga *-chi* affiksini qoʻshilishidan yasalgan. Bu kasb-hunar nomi eski oʻzbek tilida ham, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ham *itmakchi* fonetik variantida qoʻllanganligini koʻrishimiz mumkin: *Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq*. (Mahbub ul-qulub, 46-47-b.)

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa *etmakchi* // *itmakchi* qoʻllanmaydi, arxaik soʻz hisoblanadi.

“Devonu lugʻotit turk” asarida *etikdoʻz* soʻzi *etukchi* shaklida berilgan.

Hozirgi *qassob* soʻzining tarixiy varianti *etchi* soʻzi esa *goʻsht* maʼnosidagi *et* asosidan morfologik usulda yasalgan. Yuqorida keltirilgan lugʻaviy birliklar turkiy tillar tarixda oʻz doirasida ish koʻrganligini, ancha sof boʻlganligidan dalolat beradi.

Oʻtmishda *bilga* omonimik soʻz boʻlib quyidagi maʼnolarda qoʻllangan: 1) *hakim*, *hikmatshunos*; 2) *olim*; 3) *oqil*, *aqlli* kabi. Demak, *bilga* semantik strukturasida kasb-hunar maʼnosi ham mavjud.

Bit – *yozmoq* soʻzidan *bituvchi*, yaʼni *xattot* maʼnosidagi *bititgʻYchi* oti yasalgan.

Jatchi – *afsunchi*. *Jat* – *yomg`ir* va *shamol* keltirish uchun *toshlar* bilan qilinadigan *fusungarlik*. *Afsunchiga jatchi* deyilishi shundan.

Jatchi jatladi – *afsunchi yomg`ir yog`dirish* uchun *yada toshi* bilan *duo o`qidi*. (DLT, 119-b.) Demak, *jatchi* kasb-hunar nomi *jat* asosidan yasalgan.

Jirag`u* – *cholg`uvchi, ashulachi. *Jirag`u* so`zi *g`azal, maqom, kuy* m`nosini anglatuvchi *jir* so`zidan morfologik usul bilan yasalgan. (DLT, 130-b.)

Jichi – *tikuvchi*. *Ji* – *kiyim choki*. *Tikuvchiga jichi* deyish ham shundan. (DLT, 135-b.)

Jurchi – *hunarmand, usta, yo`l ko`rsatuvchi*. (DLT, 143-b.)

Jugurg`än – Chin savdogarlarining musulmon shahriga savdo uchun chiqqan karvonlaridan oldin xat-xabarlarini yetkazuvchi chopar. (DLT, 145-b.)

Salchi – *oshpaz*. Aslida bu so`z shu ma`noda bo`lsa-da, so`ng oshpaz pichog`iga nisbatan ham qo`llangan.

Salchi bichak deyilgani kabi. (DLT, 206-b.)

Tabug`chi* – *xizmatkor*. Bu kasb-hunar nomi *tabug` otidan *-chi* affiksi vositasida yasalgan. (DLT, 240-b.)

*Tabug`* so`zi quyidagi ma`nolarni anglatgan:

1) *xizmat qilish; xizmat; 3) toat-ibodat qilish* kabi. (DLT, 240- b.)

Terguchi – *to`plovchi*. *Tergu* aslida *turli ovqatga to`la stol, dasturxon* degani. *Dasturxon tuzovchi* shaxs *terguchi* deb ataladi. Demak, ***terguchi*** hozirgi *dasturxonchi* so`zining tarixiy muqobilidir. (DLT, 226-b.)

“Devonu lug`otit turk” asari va turkiy tillar, xususan, o`zbek tilidagi kasb-hunar nomlariga doir materiallar tahlilidan ko`rinadiki, turkiy tillarning ilk taraqqiyot bosqichlarida til sofliги tamoyili yetakchilik qilgan, tilning barcha sathlarida, jumladan lug`aviy va so`z yasaliш sathida ham asosan ichki manba va vositalar asosida ish ko`rilgan. Kasb-hunar nomlarining salmoqli qismi tilning ichki manba va vositalari asosida yasalgan, ularning bir qismi asrlar osha avlodlardan avlodlarga o`tib tilda yashab kelmoqda. O`zbek tilining kasb-hunar nomlari guruhi keyingi bosqichlarda fors-tojik, arab, rus tili va u vositasida boshqa

xorijiy tillar vositasida taraqqiy etgan, ayrim turkiy kasb-hunar nomlari o'zlashmalar bilan almashgan, eskirgan lug'aviy qatlamga o'tgan.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, Alisher Navoiy asarlarida 300 dan ortiq kasb-hunar nomlari mavjud.

O'zbek tili lug'at tarkibida arxaiik va tarixiy kasb-hunar otlari juda katta o'rin tutadi. Kasb-hunar nomlari ma'noviy guruhining tarixiy taraqqiyotini eski o'zbek adabiy tili, jumladan, Alisher Navoiy asarlari misolida ko'rib chiqamiz.

So'z o'zi ifodalagan tushuncha bilan eskirgan va hozirda mavjud bo'lmagan, tarixiy, o'tmishda bo'lgan narsa, voqea-hodisalarni ifodalovchi so'zlar istorizmlar yoki tarixiy so'zlar deyiladi.

Quyida saroy amaldorlarini bildirgan tarixiy kasb-hunar otlari misolida ko'rib chiqamiz.

Alamkash so'zi eski o'zbek adabiy tilida *bayroqdor*, *bayroq ko'taruvchi* ma'nolarini anglatgan.

*Gar o'lsa falak sori alamkash,
Bor erdi ko'ziga to'tiyovash.*

(Layli va Majnun, 89.)¹

Diramsanj – pul o'lchovchi.
*Kosib kunji kafi zar olg'inchil erur,
Ikki qo'li mezonil diramsanji erur.*

(Nazm ul – javohir, XV- 23.)²

Jallod – jon oluvchi, o'lim hukmining ijrochisi.
Maqsudi ani sayyod qilmoq va o'ziga jonlig'lar qasdig'a jallod qilmoq,

(Mahbub ul – qulub, 57.)

Kanizak – yosh cho'ri ayol.

*...shodurvonida necha ming sohibjamol kanizak erdikim, alardin necha yuz
mug'anniya aedilar.*

(Tarixi muluki ajam, 522.)

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 1-ж. – Б. 77.

² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 1-ж. – Б. 493.

Sayrafiy – sarrof, zarshunos, saralovchi.

...bu sayrafiylar maqsudi iliklab, qaytmoqlari.

(Farhod va Shirin, 82.)

Sarrof – 1. pul almashtiruvchi, pul maydalovchi:

Charx sarrofi qoshinda birdurur dur birla tosh,

Toshdek so`z kelsa, durdek lafz ila qilma badal.

(Xazoyin ul-maoniy, II bob – 386.)

Shig`ovul – xudaychi (podshoh saroyida tantana marosimlarini boshqarib va nazorat qilib turgan katta amaldor).

Yana bir “vov” va “lom” ba`zi lafzg`a ilhoq qilib bir maxsus sifatqa ta`yin qilurki, salotinning xoh ramz asbobi uchun va xoh bazm jihoti uchun mu`tabardur, Andoqki, xirovul... shig`ovul, alar mundin ulviydurlar.

(Muhokamat ul-lug`atayn, XIV – 117.)¹

Eski o`zbek tilida *bakovul* (xon dasturxonchisi yoki bosh oshpaz), *so`zovul* (qochoq askarlarni o`z to`dasiga qaytaruvchi amaldor), *Tamog`chi* (tamg`a bosuvchi, boj oluvchi amaldor), *tunqotar* (tungi qorovul, amal nomi), *chovush* (xudoychi, eshik og`asi), *eshikog`asi* (darvoza soqchisi), *yasovul* (intizom saqlovchilik amali), *ayog`chi // ayoqchi* (soqiy, may quyuvchi), *bitikchi* (xat yozuvchi, kotib), *bovurchi* (oshpaz), *borschi* (yo`lbars o`ynatuvchi), *olg`inchi* (to`plovchi), *o`zanlar* (cholg`u chalib, yalla, ashula qiluvchi shaxslar), *o`tmakchi* (novvoy) kabi unvon, mansab nomlarini bildiruvchi quyidagi kasb-hunar nomlari ham bugungi kunga kelib tarixiy so`zga aylandi.

Arxaik va tarixiy so`zlar, qo`shimchalar badiiy va ommaviy uslublarni hosil qiladi. Tarixiy kasb-hunar nomlarini tarixiy davrni tasvirlash uchun, uslubiy ma`noda esa asar qahramonini ta`riflash, uning eskilikka moyilligini ko`rsatish, mazax, kulgu mazmunida qo`llanadi.

Shu kabi tarixiy kasb-hunar nomlarini ta`lim-tarbiya sohasida, hunarmandchilik, dehqonchilikka oid kasb-hunar otlari va boshqa barcha turlarida ham kuzatishimiz mumkin.

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 3-ж. – Б. 532.

O`zbek adabiy tilidagi kasb-hunar nomlarining juda katta qismini o`zlashma qatlamga mansub lug`aviy birliklar tashkil etadi.

O`zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma`lum til elementlarining ko`chishi, kirishidir. O`zbek tiliga rus, arab, fors-tojik tillaridan anchagina kasb-hunar nomlari o`zlashtirilgan.

O`zbek tilidagi o`zlashma kasb-hunar nomlarini 3 guruhga bo`lish mumkin:

1. O`zbek tiliga arab tilidan tilidan o`zlashgan kasb-hunar nomlari.
2. O`zbek tiliga fors-tojik tilidan o`zlashgan kasb-hunar nomlari.
3. O`zbek tiliga rus va yevropa tillaridan o`zlashgan kasb-hunar nomlari.

Arab tilidan o`zbek tiliga kasb-hunar nomlarining o`zlashtirilishida quyidagi omillar yetakchi sabab bo`lgan:

1. Arablar istilosi.
2. Islom dinining keng tarqalishi.
3. Arab yozuvining qo`llana boshlaganligi.
4. Madrasalarda arab tilining o`qitilishi.
5. Turkiy-arab ikki tilliligining tarkib topganligi.
6. Olimu suqarolarning arab tilida ijod qilganligi va boshqalar.

Arab tilidan kasb-hunar nomlarining o`zlashtirilishi o`tmishda faol bo`lgan, hozir esa bu jarayon deyarli to`xtagan. Ayrim arabcha kasb-hunar nomlari hatto eskirib, tarixiy yoki arxaizmlar qatoriga o`tib qolgan. Masalan, *bazzoz, jarchi, maktabdor, mashshoq, mirob, g`avvos* kabi.

O`zbek tiliga arab tilidan 50 dan ortiq kasb-hunar nomlari o`zlashgan bo`lib, ular quyidagilar: *adib, askiyachi, attor, bazzoz, baqqol, binokor, bo`zchi, jarchi, iqtisodchi, kabobpaz, kosib, kotib, maktabdor, mashshoq, me`mor, mirob, muallim, mudarris, mudofaachi, murabbiy, musavvir, muxbir, mug`anniy, muhandis, muhrdor, naqqosh, notiq, nosir, noshir, rassom, raqqosa, san`atkor, soatsoz, surnaychi, tabib, tadbirkor, farrosh, xattot, shifokor, shoir, qassob, qissanavis, g`avvos, hakim, hammol, hofiz*.

Fors-tojik tilidan o`zbek tiliga kasb-hunar nomlarining o`zlashtirilishida quyidagi omillar yetakchi sabab bo`lgan:

1. O`zbek va tojik xalqlarining qadimdan bir hududda, bir xil ijtimoiy tuzum, iqtisodiy va madaniy-ma`naviy muhitda yashab kelayotganligi.
2. O`zbek-tojik va tojik-o`zbek ikki tilligining keng tarqalganligi.
3. Tojik va fors tillarida ijod qilish an`analarining uzoq yillar davom etganligi.
4. Qo`qon xonligi va Buxoro amirligida tojik tilining alohida mavqega ega bo`lganligi.
5. Adabiyot, san`at, madaniyat, urf-odatdagi mushtaraklik va boshqalar.¹

O`zbek tiliga fors-tojik tilidan 40 dan ortiq kasb-hunar nomlari o`zlashgan. Jumladan, *aravaso*, *aravakash*, *bastakor*, *binokor*, *bozorgir*, *bog`bon*, *gazlamafurush*, *gilamdo`z*, *gulchi*, *go`rkov*, *darvozabon*, *dasturxonchi*, *zargar*, *zardo`z*, *kabobpaz*, *kavushdo`z*, *kashtado`z*, *mardikor*, *mahsido`z*, *mevafurush*, *mo`ynado`z*, *navozanda*, *novvoy*, *noskash*, *oshpaz*, *pazanda*, *payvandchi*, *paxtakor*, *podachi*, *posbon*, *savdogar*, *sartarosh*, *somsapaz*, *usta*, *xonanda*, *chilangar*, *chorvachi*, *g`ijjakchi* kabi.

Demak, fors-tojik tilidan o`zlashgan kasb-hunar nomlarining zaruriy, seris-te`molligi, o`zbek tiliga allaqachon singiganligi, bu so`zlarning o`zbek aholisiga o`z tili leksikasidek tuyulishida yorqin seziladi.

Tilimizga yevropacha so`zlar oqimining kirib kelishi o`lkamizning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishidan keyin boshlandi va sobiq sho`rolar hukmronligi davrida keng avj oldi.

Shuni aytish kerakki, qariyb yuz yildan ortiq davr mobaynida rus tili orqali kirib kelgan so`zlarning asosiy qismi tilimizga singib ketgan. Yevropacha so`zlar bizga asosan rus tili orqali kirib kelgani bois ba`zilar ularning hammasini ruscha so`zlar deb o`ylashadi. Vaholanki, ularning asosiy qismi qadimgi lotin, yunon, fransuz, ingliz tillariga mansub bo`lib, xalqaro termin sifatida turli tillarga, shu jumladan, o`zbek tiliga ham kirib kelgan va o`zlashib ketgan.

O`zbek tiliga bir qancha ruscha-internatsional kasb-hunar nomlari o`zlashgan bo`lib, ular quyidagilar: *dublyor*, *doktor*, *dirijyor*, *diktor*, *zootexnik*,

¹ Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – Б. 191.

injener, inspektor, kassir, kimyogar, kinoaktyor, kinomexanik, medik, metodist, mikrobiolog, mineralog, montyor, arxitektor, astrolog, astronavt, atomshunos, kabi.

Ularning har biri o`z ma`nosiga, qo`llanish doirasi va xususiyatiga ega. Shulardan ayrimlarini ko`rib chiqadiga bo`lsak.

Dispetcher inglizcha *dispatch* so`zidan olingan bo`lib, “*tez bajaraman*” degan ma`noni anglatadi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *dispetcher* kasb-hunar nomi quyidagi ma`nolarda ishlatiladi:

1. Transport vositalari harakatini yoki korxonadagi ish jarayonini xabar berish qurilmalari va aloqa vositalari: telefon, raditefon, signalizatsiya, faks va televizion uskunalari, kompyuter va shu kabilar orqali bitta markazdan, bir joydan turib nazorat qiluvchi va boshqarib turuvchi xodim. *Temir yo`l dispetcheri.*

2. ko`chma ma`noda tashkilotchi, uyushtiruvchi, oldinga boshlovchi. *Futbol maydonida jamoa sardori dispetcher rolini o`ynaydi.* Gazetadan.

Fransuz tilidan bir qator kasb-hunar nomlari o`zlashdi.

Partnyor (fr. *partenaire*) Biror ishda yoki o`yinda, sahna asarida birga ishtirok etuvchilardan har biri, sherik. *Shaxmatchi partnyorlar.*

Suflyor (fr. *Souffleur* – uqtirmoq, o`rgatmoq; sekin aytib turmoq) teatrdan sahnaga chiqqan artistlarga ularning so`zlarini, tomoshabinlarga ko`rinmaydigan maxsus joyda turib, aytib berib, eslatib turuvchi xodim. *Tajribali suflyor.*

Dublyor so`zi fransuzcha *doubleur* so`zidan olingan bo`lib, “*ikkilantiruvchi*” degan ma`noni anglatadi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida quyidagi ma`nolarda ishlatiladi:

1. Biror ishni navbatlashib bajaruvchi yoki ishda bir-birining o`rnini bosa oluvchi ikki kishidan biri. *Kosmonavtning dublyori.*

2. Teatrdan rolni ijro etuvchi aktyorni almashtiruvchi ikki aktyordan biri.

3. Dublyaj qilingan filmda ovoz bergan (kino) aktyor. *Ba`zi hollarda ekrandagi holatga nisbatan so`z uzun bo`lsa, dublyor so`zini tezroq aytishi kerak* (G`. Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish).

Hozirgi kunda ham fan-texnika rivoji natijasida ingliz, nemis, fransuz va boshqa ko`plab dunyo tillaridan kasb-hunar nomlari o`zbek tiliga kirib kelmoqda.

Bob bo'yicha xulosalar

1. *Kasb* so'zi oliy ma'lumotli mutaxassislarga, *hunar* lug'aviy birligi muayyan mehnat ko'nikmasiga ega shaxslarga, xususan, hunarmandlarga nisbatan qo'llanishi kuzatiladi hamda *kasb-hunar* juft so'zida esa har ikki leksemaga xos ma'nolarning umumlashgan, jamlangan holati ifodalanadi. Demak, *kasb-hunar* lug'aviy birligining ma'no ko'lamini keng bo'lib, barcha turdagi kishilar mehnat faoliyati bilan bog'liq mutaxassislik, ixtisosliklarni ifodalaydi.

2. Hozirgi o'zbek adabiy tilining lahja va shevalari lug'at tarkibida kasb-hunar nomlari mavzuiy guruhi salmoqli o'rin tutadi. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lug'viy birliklar mavzuiy guruhi o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq tarzda til taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, eskirish, yangilanish hamda shakli va ma'noviy jihatdan sayqallanish asosida taraqqiy etib borgan.

3. "Devonu lug'otit turk" asari va turkiy tillar, xususan, o'zbek tilidagi kasb-hunar nomlariga doir materiallar tahlilidan ko'rinadiki, turkiy tillarning ilk taraqqiyot bosqichlarida til sofliqi tamoyili yetakchilik qilgan, tilning barcha sathlarida, jumladan lug'aviy va so'z yasash sathida ham asosan ichki manba va vositalar asosida ish ko'rilgan.

4. Kasb-hunar nomlarining salmoqli qismi tilning ichki manba va vositalari asosida yasalgan, ularning bir qismi asrlar osha avlodlardan avlodlarga o'tib tilda yashab kelmoqda.

2-bob. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining lug`aviy- ma`noviy tasnifi va tavsifi

2.1. Kasb-hunar nomlari lug`aviy-ma`noviy guruhlari va tahlili

Tilshunoslikda semantik yoki tushuncha maydoni haqidagi fikrlar Vilgelm fon Gumboldtning “tilning ichki formasi” haqidagi qarashlari negizida XX asrning boshlarida paydo bo`ldi.

Ma`lum bir arxisema (umumiy sema) asosida birlashuvchi so`z va iboralar majmuiga **semantik yoki tushuncha maydoni** deyiladi.¹

O`zbek tilshunosligida leksikani semantik maydon asosida o`rganish tilimizga sistem-struktur metodlarning kirib kelishiga borib taqaladi. Leksemalarni tematik maydonlarini, leksemaning mazmuniy guruhlari va to`dalarini, leksemaning ma`noviy munosabatlarini o`rganish o`zbek tili leksikologiyasining istiqbolli yo`nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Tildagi so`zlarning muhim xususiyati shuki, ular o`zida qanday g`oya tashiyotganiga qarab alohida semantik(tushuncha) maydonlarini hosil qiladi.

Tildagi lug`aviy birliklar, shu jumladan, kasb-hunar nomlari ham o`z ma`no xususiyatiga ko`ra shaxs nomlari semantik maydoniga mansub. O`zbek tilidagi shaxs nomlari semantik maydoniga mansub kasb-hunar nomlari ham bir qancha mavzuviy guruhlarga bo`linadi. Biz o`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarini Sh.Iskandarov², A.Sobirov³ tadqiqotlariga tayangan holda quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratishni lozim topdik:

1. Ta`lim sohasi bilan bog`liq kasb-hunar nomlari: *adib, maktabdor, muallim, murabbiy, mudarris, o`qituvchi, tarbiyachi* kabi.

¹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 87.

² Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 152.

³ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 160.

Ta`lim-tarbiya bilan bog`liq kasb-hunar nomlari ichida eng qadimiylaridan biri bo`lgan *pedagog* so`zi yunoncha so`z bo`lib, *tarbiyachi* degan ma`noni anglatadi. Hozirgi o`zbek tilida *pedagog*; bolalar va yoshlarni tarbiyalash va o`qitish bilan shug`ullanuvchi, shu soha bo`yicha maxsus tayyorgarlikka esa bo`lgan shaxs, o`qituvchiga nisbatan qo`llanadi.

Maktabdor so`zi tarixiy kasb-hunar nomi bo`lib, oktyabr to`ntarishidan oldingi davrda xususiy maktabi bo`lgan muallimga nisbatan ishlatilgan: muallim, murabbiy kabi tushunchalarni anglatgan:

Solih mahdum, o`z qatoridagi maktabdor domlarni aslo ko`rolmas, ularga qarshi yuragida umrlik kek saqlar ed. (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.)

Muallim arabcha so`z bo`lib, o`rgatuvchi, o`qituvchi, *ustoz* degan ma`nolarni anglatadi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida ko`p ma`noli so`z sifatida quyidagi ma`nolarda ishlatiladi:

1. Dars beruvchi kishi; o`qituvchi, *pedagog*: *matematika muallimi*.
2. Ta`lim beruvchi, birovga biror narsa o`rgatuvchi kishi; *ustod*//*ustoz*.

Murabbiy arabcha so`z bo`lib, *tarbiyachi* degan ma`noni anglatadi va hozirgi o`zbek adabiy tilida quyidagi ma`nolarda ishlatiladi:

1. ayn. *tarbiyachi*:

Murabbiy – bola qalbida nish ura boshlagan umid g`unchalarining mehribon sohibidir. (Usmonov S, Odobnoma)

Omuzgor so`zi arxaik kasb-hunar nomi bo`lib, o`rgatuvchi, *ustoz* ma`nolarini anglatgan:

*Yana surdi farmondehi ro`zgor,
Ey donnish ahlig`a omuzgor.*

(Saddi Iskandariy, 295b8.)

*O`qituvchi* – fan tarbiya asoslaridan birini o`qitadigan, dars beradigan kishi: *Oqqko`lga o`xshagan uzoq qishloqlarga o`qituvchi yetishmas edi.* (Qodirov P., Qora ko`zlar)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida ta'lim-tarbiya bilan bog'liq kasb-hunar nomlaridan *pedagog, muallim, murabbiy, o'qituvchi* so'zlari o'zaro ma'nodoshlik kasb etadi va hozirgi kunda ham faol ishlatilmoqda.

2. Tibbiyot sohasi bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *tabib, azayimxon, akusher, aptekachi, dorigar, baleneolog, doktor, shifokor, jarroh (xirurg), vrach, laringolog, stamatolog.*

Tibbiyot – kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrini uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui.¹ *Tibbiyot* so'zi o'rnida *meditsina, tabobat* so'zlari ham ishlatiladi. Shu sohaga oid kasb-hunar nomlari ham bir qancha.

Tabib so'zi arabcha bo'lib, *shifokor, davolovchi; vrach* ma'nolarini anglatadi. Bu kasb-hunar nomi quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

1. Bemorlarni davolovchi mutaxassis; vrach: *Kasalning tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i bilan keladi.* (Maqol)

2. Tibbiyot ilmidan muayyan mutaxassis tayyorlovchi o'quv yurtida ta'lim olmagan, o'z harakati, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolash bilan shug'ullanuvchi shaxs: *Tabib qo'y jigarini ham kabob qilib, bujg'un sepib yeng, degan edi... dardi shifo topmabdi.* (M.Ismoil, Farg'ona tong otguncha)

Hozirgi kunda *tabib* so'zining *bemorlarni davolovchi mutaxassis, vrach* ma'nosi eskirib, *tabiiy usullar bilan, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolovchi shaxs* ma'nosi bilan iste'molda.

Akusherka fransuzcha so'z bo'lib, *tug'ruqqa yordam bermoq* ma'nosini anglatadi. Homiladorlarni muntazam kuzatish, dispanser kuzatuv ro'yxatiga olish, ularning kasalligini aniqlash, tug'ruq vaqtida va tug'ruqdan keyingi (chilla) vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi, maxsus o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimi.

¹ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2004. – 8-ж. – Б. 414.

Doktor soʻzi lotincha boʻlib, *oʻqituvchi, muallim, ustoz* maʼnolarini anglatadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida koʻp maʼnoli soʻz boʻlib quyidagi maʼnolarda ishlatiladi:

1. Soʻzlashuv tilida kasalliklarni davolovchi oliy maʼlumotli tibbiyot xodimi; shifokor, vrachga nisbatan qoʻllanadi: *Oyim ham tez-tez doktorga qatnaydigan boʻlib qoldi.* (S.Siyoyev, Yorugʻlik)

2. Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan fan nomzodlari yoki professorlarga beriladigan oliy ilmiy daraja va shu darajani olgan olim. *Filologiya fanlari doktori.*

Shifokor arabcha soʻz boʻlib, *shifolovchi, davolovchi* maʼnolarini anglatadi. Hozirda quyidagi maʼnolarda ishlatiladi:

1. Umuman, kasalliklardan xalos qiluvchi; davolovchi. *Shifokorlar qadimgi davrl;ardayoq zaharli moddalarning inson sihat-salohatligi uchun nafi borligini eʼtirof etganlar.* (Z.Egamberdiyev, Zaharning nafi)

2. Tibbiyot institutini bitirgan va davolash-profilaktika hamda sanitariya-epidimologiya muassasalarida ishlash huquqiga ega boʻlgan mutaxassis; vrach, doʻxtir. *Yomon shifokorning qotildan faqi yoʻq.* (Oʻ.Hoshimov, Nur borki soya bor)

Jarroh (xirurg) arabcha *hirurg* degan maʼnoni anglatib, kasalliklarni operatsiya yoʻli bilan davolovchi vrachga nisbatan ishlatiladi: *Ibn Yamin bilan Hamza jarrohga kerakli narsalar keltirib berib turishdi.* (Komil Yashin, Hamza)

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *jarroh* oʻrnida *hirurg* soʻzi ham ishlatiladi.

Vrach soʻzi rus tiliga mansub boʻlib, *gapirmoq, soʻzlamoq; avroqchi, sehrGAR* kabi maʼnolarni anglatadi. Bu kasb-hunar nomi hozirgi kunda oliy maʼlumotli tibbiyot xodimiga nisbatan ishlatiladi: *Bolalar vrachi.*

Vetvrach soʻzi veterinariya vrachi, veterinarga nisbatan ishlatiladi: *Bunaqa jigarrang “Jiguli”dan sovxozda yetti kishida bor. Qaysi biri ekan? Bosh zootexnikmi, vetvrachmi, kim boʻldi?* (Gazetadan)

Hakim soʻzi arabcha *dono*, *oqil*, *donishmand*; *tabib*; *faylasuf* kabi maʼnolarni anglatadi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa *hakim* soʻzi koʻp maʼnoli boʻlib, quyidagi maʼnolarda ishlatiladi:

1. Oʻtkir tabib; vrach, doktor: *Qadimgi dunyo hakimlari kishi asabiga muzikaning taʼsirini alohida taʼkidlaganlar*. (Gazetadan)

2. Donishmand faylasuf: *Forobiy ulugʻ yunon hakimining juda chigal falsafiy mulohazalari magʻzini chaqib bergan*. (Mirkarim Osim, Ibn Sino qissasi)

3. Hakim (erkaklar ismi).

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida tibbiyot bilan bogʻliq kasb-hunar nomlaridan *doktor*, *shifokor*, *vrach* soʻzlari faol qoʻllanmoqda.

3. Dehqonchilik va bogʻdorchilik bilan bogʻliq kasb-hunar nomlari:
dehqon, *bogʻbon*, *bedakor*, *ziroatchi*, *zigʻirkor*, *joʻxorikor*, *kartoshkakor*, *suvchi* // *mirob*, *fermer*, *brigadir*, *gʻallakor*, *agronom*// *hosilot*, *paxtakor* kabi.

Dehqon soʻzi forscha soʻz boʻlib, *katta yer egasi*, *zamindor*; *qishloq hokimi* degan maʼnolarni anglatadi. Eski oʻzbek adabiy tilida bu nom koʻp maʼnoli soʻz boʻlib, quyidagi maʼnolarda ishlatilgan:

1) qishloq boshligʻi; badavlat kishi; dehqon:

Yoʻlda Isfaroyi shahrigʻa yetkanda bir dehqon uyiga tushti.

(Tarixi muluki ajam, 519.)

2) tajribakor, ishbilarmon, ish boshqaruvchi:

Mulki jahon mazraʼi dehqoni ul,

Balki jahon mulki nigahboni ul.

(Hayrat ul – abror, 57-13.)

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida esa *dehqon* soʻzi asosiy kasbi yerga ishlov berish, ekin ekishdan iborat boʻlgan kishiga nisbatan ishlatiladi: *Dehqon boʻlsan, shudgor qil, mullo boʻlsang, takror qil*. (Maqol)¹

Demak, *dehqon* soʻzida maʼno torayishi yuz bergan.

Barzagar soʻzi eski oʻzbek adabiy tilida *dehqon*, *ekin ekuvchi*, *gʻallakor* maʼnolarida qoʻllangan:

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж.– Б. 72.

Barzagarg`a andin kom hosil, pushakashg`a andin murod vosil.

(Mahbub ul-qulub, 46.)¹

4. Savdo-sotiq bilan bog`liq kasb-hunar nomlari: *bazzoz, attor, tarafurush, allof, aspijallob, baliqfurush, baqqol, bodroqchi, bozirgon, bozorgon, namadfurush, savdogar, savdopesha, sotuvchi, gilamfurush, dallol, qassob* kabi.

Allof so`zi eski o`zbek adabiy tilida *g`alla sotuvchi, savdogar; tegirmonchi; un bozori* tushunchalarini ifodalagan: *Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq* (Mahbub ul-qulub, 47.)²

Allof asli arabcha so`z bo`lib, *xashak, pichan sotuvchi* lug`aviy ma`nolarini anglatadi. Hozirgi o`zbek tilida *un, bug`doy savdosi bilan shug`ullanuvchi savdogar* ma`nosida qo`llanadi: *Un yalagan allof, qon yalagan qassob. Bahori arpaning urug`ini men bir allofdan olgan edim* (S. Ayniy, Esdaliklar).³ Ko`rinadiki, eski o`zbek adabiy tilida so`zning ma`no doirasi keng bo`lsa, hozirda ancha toraygan.

Savdopesha savdogar so`zlari o`zaro ma`nodosh. Shuningdek, *savdopesha savdogarchilik* tushunchasini ham anglatgan:

Sohili ummonda savdopesha xayl,

Bahr savdosida sudandesha xayl (Lison ut-tayr, 59-b.).⁴ *Savdopesha* arxaizm sifatida hozirgi tilimizda qo`llanmaydi.

*Sotg`uchi//sotquchi* hozirgi *sotuvchi* so`zining tarixiy fonetik variantlari bo`lib, o`zbek tilining tarixiy bosqichlarida keng qo`llangan:

O`rdu bozori o`zin yasog`liqqa qotg`uchi, o`ngay ham ulush olmay og`ir sotg`uchi (Mahbub ul-qulub).⁵

Bozurgon // bozirgon // bozorgon so`zlari *bozorchi* so`zining fonetik variantlari bo`lib, *savdogar* so`zining sinonimlaridir: *Devoniylarg`a hukm bo`lsakim, atrof din kelgan bozurgonlarning jonibin rioyat qilsalar* (Munshaot, 132).⁶ Bu

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 219.

² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 1-ж. – Б. 80.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 72.

⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 3-жилд, 18-б.

⁵ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 3-жилд, 106-б.

⁶ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, 3-жилд, 307-б.

birliklar o`rnida hozirda *bozorchi* va uning bir semasini ifodalovchi *tijoratchi* so`zi faol qo`llanadi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *bozorchi* so`zi quyidagi ikki ma`noda qo`llanadi: 1) *savdo-sotiq ehtiyoji bilan bozorga kelgan kishi, bozorda ko`p yuruvchi*; 2) *bozorda savdo-sotiq bilan shug`ullanuvchi, bozor-o`charni yaxshi biladigan*.<sup>1</sup> Demak, so`zning *bozurgon // bozirgon // bozorgon* fonetik variantlari eskirgan, tilning arxaik so`zlar qatlamiga o`tgan, *bozorchi* so`zining ma`no doirasi kengaygan, *savdo-sotiq ehtiyoji bilan bozorga kelgan kishi, bozorda ko`p yuruvchi* ma`nosi faollashgani holda *savdo-sotiq bilan shug`ullanuvchi shaxs* ma`nosi ikkilamchi o`ringa o`tgan.

Tijoratchi so`zi arabcha *savdogarlik, oldi-sotdi* ma`nosini anglatuvchi *tijorat* asosidan *-chi* affiksi vositasida yasalgan bo`lib, hozirda faol qo`llanmoqda. Mazkur so`z ham aynan *savdogar* so`zining sinonimidir.

Tahlillardan ko`rinadiki, til tarixida *savdogar* so`zining bir necha sinonimlari, variantlari bo`lgan. Bu variantlar arab va fors-tojik tilidan so`z o`zlashtirish asosida yuzaga kelgan. Til taraqqiyotiga xos eskirish va sayqallanish omillari asosida hozirgi tilimizda *savdogar* va uning *tijoratchi, sotuvchi* kabi sinonimlari faol ishlatiladi.

Savdo-sotiq bilan bog`liq kasb-hunar nomilaridan biri *bazzoz* so`zi asli arabcha bo`lib, *gazlama sotuvchi* degan ma`noni anglatadi. Eskirgan leksik qatlamga kiruvchi *bazzoz* leksemasi *gazlama bilan savdo qiluvchi do`kondor; gazlamafurushga* nisbatan ishlatilgan:

Raxtki, bazzoz, terib rang-rang,

Atlasi aflok kibi tang-tang.

(Hayrat ul-abror, 181-1.)²

Attor arabcha so`z bo`lib, *atir-upa sotuvchi* degan ma`noni anglatadi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida quyidagi ma`nolarda ishlatiladi:

¹ Қаранг. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-ж, 300-б.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –1-ж. – Б. 140.

1. Upa-elik, turli dorivorlar, xushbo'y narsalar va shu kabilar bilan savdo qiluvchi shaxs, do'kondor: *Xurjun ortilgan eshakni qishloqma-qishloq oldiga solib: "Farangi ip, iroqi sovun, oq saqich, qora saqich!" deb qichqiradigan attor ham bedarak yo'qoldi.* (Parda Tursun, O'qituvchi.)¹

2. "Mantiq ut-tayr" asarining muallifi – Fariduddin Attorning taxallusi.

Namadfurush eski o'zbek adabiy tilida *kigiz, namat* sotuvchilik bilan shug'ullanuvchi shaxs lug'aviy ma'nosini anglatgan:

Yana bir do'konkim, Xumi obg'a mashhurdur timning sharqiy haddida va bir namadfurushluq do'koni bolxonasi bila ham bozorning g'arbisida.

(Vaqfiya, XIII-177.)

Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu kasb-hunar nomi eskirgan leksika qatlamga mansub.

Tarafurush kasb-hunar nomi *ho'l meva sotuvchi, mevafurushga* nisbatan eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan bo'lib, hozirgi o'zbek tilida arxaik so'zlar sirasiga kiradi:

Bu davrda karam sabzasi tarafurush do'konidin o'zga yerda topilmas.

(Mahbub ul-qulub, 89.)

Aspijallob aslida forsha-arabchadan olingan bo'lib, *ot sotib olib keluvchi* degan lug'aviy ma'noni anglatadi.² *Aspijallob ot olib sotuvchi savdogarga* nisbatan ishlatilgan. Hozirgi kunda bu kasb-hunar nomi eskirgan.

Baliqfurush hozirgi o'zbek adabiy tilida xom yoki qovurilgan baliqni sotish bilan shug'ullanuvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi: *Endi menga bir qarmoq qilib bersang, yengil ish-da, men baliqfurushlik qilsam.* ("Nurali")³

Arabcha *baqqol* so'zining lug'aviy ma'nosi *ozuq-ovqat mollari, sabzavot sotuvchi* degan ma'noni anglatib, eski o'zbek adabiy tilida mayday-chuyda ro'zg'or mollari va ozuq-ovqat (meva, shirinliklar va shu kabi)lar sotuvchi mayda savdogarga nisbatan eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan: *Har yili hamalning*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. –1-ж. – Б. 116.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. – Б. 109.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. – Б. 149.

*o`ninchi kuni shahardagi nufuzli baqqollardan biri yeti xil ko`kat, yeti xil tarmeva solingan barkash ko`tarib saroyga borardi. (S.Siyoyev, Avaz.)*¹

5. Me`morchilik bilan bog`liq kasb-hunar nomlari: *banno, boniy, doygʻar, me`mor, naqshpayvand, naqshsoz, naqqosh, navkash, pozaliq, sabbog`, sangtarosh, arxitektor, binokor* kabi.

O`zbekiston me`morchiligi juda qadimiyligi, turli-tuman me`moriy yodgorliklari, yuksak nafosat mujassam bo`lgan mahobatli osoriyatlari bilan diqqat-e`tiborni tortadi. Shu bois me`morchilik bilan bog`liq kasb-hunar nomlarining yuzaga kelishi uzoq o`tmishga borib taqaladi. Shu bois o`zbek tili leksikasining barcha taraqqiyot bosqichlarida me`morchilik bilan bog`liq kasb-hunar nomlari salmoqli o`rin egallaydi.

Alisher Navoiy asarlarida ham 300 ga yaqin kasb-hunar nomlari kuzatiladi. Ularning salmoqli qismi me`morchilikka oid.

Alisher Navoiy asrlarida quyidagi me`morchilik bilan bog`liq kasb-hunar nomlari uchraydi: *banno, boniy, doygʻar, me`mor, naqshpayvand, naqshsoz, naqqosh, navkash, rozaliq, sabbog`, sangtarosh, binokor* kabi.

Banno – usta, binokor, me`mor:

Har kun ul ish ki qilsa bannosi,

*Shah kelib aylagay yamoshosi. (Sab`ai sayyor, 74-8.)*²

Boni // Boniy – binokor, quruvchi, imorat yasovchi:

Bo`lub me`mori qudrat anda boni,

*Suvdin qilmay xarob andoq binoni. (Munshaot, 97.)*³

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *banno, boniy* kasb-hunar nomlari eskirib, iste`moldan chiqib ketgan.

Doygar so`zi eski o`zbek adabiy tilida *paxsakash, loydevor ustasi* degan ma`nonlarni anglatgan:

Bo`lub har doygʻar gardung`a payvast,

*Qolib bel urug`uchi bolchig`aro past. (Farhod va Shirin, 41.)*¹

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. – Б. 190.

² Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – I жилд. – Б. 214.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – I жилд. – Б. 311.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *doygar* eskirgan arxaik kasb-hunar nomidir. Uning o`rnida *paxsakash* so`zi qo`llanadi.

*Me`mor* eski o`zbek adabiy tilida “*binokor*”, “*usta*” tushunchalarini anglatgan:

Ne kim bo`lsa me`mori chobukhayol,

Yana dag`i ustodi nozuk xayol. (Saddi Iskandariy, 306 b 9.)

*Me`mor* so`zi aslida arabcha so`z bo`lib, *binokor*, *imoratsoz*; *arxitektor* degan lug`aviy ma`nolarni anglatadi:

*..bu binoning haqiqiy san`at darajasiga ko`tarilishi Xuroon ma`morlari – ustoz Qavom, ustoz Najmidin Buxoriy.. nomi bilan bog`liqdir.*² (Mirmuhsin, *Me`mor*.)

*Me`mor* so`zi hozirgi o`zbek adabiy tilida ham faol qo`llanadi.

Muhandis arabcha so`z bo`lib, *injener*, *texnika*; *handasa (geometriya)*ni yaxshi biluvchi, quruvchi *usta* ma`nolarini anglatadi. Eski o`zbek adabiy tilida ham *muhandis*; *binokor*, *me`mor* ma`nolarida faol qo`llangan:

Muhandiss topayu egnima qanot yasatay,

Uchub havosida qushlar aro o`zumni qotay. (Xazoyin ul-maoniy, IV b-598.)

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *muhandis* kasb-hunar nomining istiqlol yillarida qo`llanishi faollashdi va aynan shu ma`nosida faol ishlatilmoqda.

Naqshpayvand so`zi eski o`zbek adabiy tilida *naqsh bog`lovchi naqqosh* tushunchasini anglatgan:

Ko`rub shahzoda ko`nglin mug`lig`a band,

Bo`lub xorataroshu naqshpayvand. (Farhod va Shirin, 43.)³

Hozirgi kunda esa bu kasb-hunar nomi arxaik leksikaga aylangan.

Naqqosh so`zi aslida arabcha bo`lib, *o`ymakor*, *bo`yoqchi* degan ma`nonlarni anglatadi. Eski o`zbek adabiy tilida *naqqosh*, *suratchi*, *naqsh soluvchi* ma`nosida qo`llangan:

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – I жилд. – Б. 498.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 2-ж. – Б. 586.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – II жилд. – Б. 448.

Bahrom binni Hurmuz otasi Hurmuz vasiyati bila podshoh bo`ldi va Moniy naqqoshning, millatikim zindiq erdi, aning zamonida shoyi bo`ldi.

(Tarixi muluki ajam, XIV-211.)¹

Hozirgi o`zbek adabiy tilida esa *naqsh ishlovchi, bezak, gul yaratuvchi usta* ma`nolarini anglatadi:

Ko`zim jimirlab ketdi, Naqshlariga qarasam. Deydilar: usta Shirin, Naqqoshini so`rasam.(Q.Muhammadiy)²

Novakash so`zi esa esaki o`zbek adabiy tilida *suvoqchi* lug`aviy ma`nosini anglatgan bo`lib, hozirgi kunda tushuncha saqlanib, so`zning o`zi eskirgan ya`ni arxaik so`z hisoblanadi.

Bo`lub har novakash bir bahri jo`shon,

Ruboyi bahri soz aylab xurushon. (Farhod va Shirin, 41.)³

Rozaliq – tosh yo`nuvchilik:

Mavloni Solihi... avval rozaliq san`atig`a mansub erdi. (Majolis un-nafois, 187.)

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *rozaliq* so`zi ham arxaik so`z hisoblanadi.

Eski o`zbek adabiy tilida **sabbog`** kasb-hunar nomi *bo`yoqchi* tushunchasini anglatgan bo`lib, vaqtlar o`tib arxaik so`zga aylandi.

San`atning sabbog`idin ko`k zoli kiygan hullai moviy,

Hoshiya bo`lg`an shafaqdin zaylig`a rangi gul kaz. (Xazoyin ul-maoniy, I b-464.)

Sangtarosh so`zi asli forscha so`z bo`lib, *tosh yo`nuvchi; haykaltarosh* ma`nosini anglatadi. Bu kasb-hunar nomi eski o`zbek adabiy tilida ham, hozirgi o`zbek adabiy tilida ham xuddi shu ma`nosida faol qo`llanmoqda.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, til tarkibining taraqqiyoti: lug`aviy birliklarning eskirishi, yangilanishi va sayqallanishi kasb-hunar nomlariga ham xos bo`lib, mazkur mavzuiy guruh ham jamiyat hayotidagi turli, xususan, me`morchilik

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – II жилд. – Б. 449.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. –3-ж. – Б. 30.

³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – II жилд. – Б. 469.

hamda shaharsozlik borasidagi o'zgarishlar ta'sirida takomillashib borgan va bormoqda.

6. Qurilish sohasi bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *injener // muhandis, chilangar, duradgor.*

7. Hunarmandchilik nomlari: *teshavor, alachabof, aravasozi, bordonchi, suturlabsoz, ohangar //temirchi, doshgarlik, javlaha, jibachi, jomabof, zargarlik, kafshado'zlik, kemachi, kisado'zlik, kordgarlik, kosib, ko'ftgarlik, najjor, nayzachi, nahlband, ohangudoz, pardavar, peshavor, peshakor, sanno kabi.*

8. Sport bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *chavgonchi, ko'pkarichi, boksyor // bokschi, futbolist, gimnastikachi, basketbolchi, karatechi, kurashchi, atlet, kanoechi, marafonchi kabi.*

9. Pazzandachilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *bakovul, matbaxiy, bovruchi, oshpaz, kabobpaz, kallapaz, somsapaz, pazzanda kabi.*

10. Chorvachilik va parrandachilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *axtachi, sinchi, buzkash, yilqichi, yilqiboqar, cho'pon, buzoqboqar, miroxur, molboqar, molchi, qo'ychivon, otboqar kabi.*

11. Huquq, sud ishlari bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *advokat, arbiter, sudiya, tergovchi, prokuror kabi.*

12. Harbiy soha bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *didbon, darbon, kitpovul, lashkar, marzbon, muhorib, navkar, nigohbon, novakondoz, nozir, nozirbonlig, poykor, razmsoz, askar // soldat, ofitser kabi.*

13. Maishiy xizmat bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *zorubkash, gozur // kozur, guzoranda, zorubkash, shotir, shukurchi, farrosh, sartarosh, kosib kabi.*

14. Voizlik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *voiz, zebogo'y, lofiz, mutakallim, notiq, va'xson, journalist, suxandon, diktor, boshlovchi kabi.*

15. Xattotlik bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *roqim, xattot, baxshi, gavharfishon, kotib, mushafnavis, navisanda, nomaoro, bitikchi kabi.*

16. Moliya bilan bog'liq kasb-hunar nomlari: *dabir, diramsanj, misohat, bankir, kassir, buxgalter // hisobchi kabi.*

17. Texnika bilan bog`liq kasb-hunar nomlari: *mexanik, mexanizator, texnik, telemexanik, bortmexanik, elktrotexnik, zootexnik, tramvaychi, mashinist, metrochi, priborsoz* kabilar.

18. San`at bilan bog`liq kasb-hunar nomlari: *barbatchi, lahnapardoz, hofiz, ashulachi, xonanda, navogo`, navozanda, otarchi, artist, raqqos, raqqosa, o`yinchil, ayolg`uchi, sozanda, sozchi, mashshoq, mug`anniy, cholg`uvchi, musiqachi // muzikachi // muzikant, dutorchi, dutorboz.*

O`zbek tili lug`aviy tizimida ijtimoiy madaniyatning estetik zavq beruvchi, hayotni badiiy obrazlar vositasida aks ettiruvchi san`at sohalari bilan bog`liq kasb-hunar nomlari ham salmoqli o`rin tutadi. O`zbek tilidagi san`at sohalari bilan bog`liq kasb-hunar nomlarini quyidagicha sinonimik guruhlariga ajratish mumkin:

**1) musiqa san`atiga oid kasb-hunar nomlari:** *ayolg`uchi, sozanda, sozchi, mashshoq, mug`anniy, cholg`uvchi, musiqachi // muzikachi // muzikant, dutorchi, dutorboz;*

**2) raqs san`atiga oid kasb-hunar nomlari:** *raqqos, raqqosa, o`yinchil;*

**3) qo`shiqchilikka oid kasb-hunar nomlari:** *hofiz, ashulachi, xonanda, navogo`, navozanda, otarchi, artist.*

Mazkur san`atga oid kasb-hunar nomlarining har biri o`ziga xos ma`no tuzilishiga, tarixiy-etimologik manba-siga ega.

Sozanda so`zi asli forscha bo`lib, *quruvchi, yaratuvchi; cholg`uvchi* kabi ma`nolarni anglatadi. Eski o`zbek adabiy tilida **sozanda** so`zi cholg`uvchi ma`nosida qo`llangan: *Boysung`ar Mirzo... xattot va naqqosh va sozanda va go`yandadin muncha Benazir kishikim, aning tarbiyatidin arog`a kirdi.*¹

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *milliy musiqa asboblari*dan birida *mashq qiluvchi musiqachi; mashshoq, navozanda* ma`nolarida ishlatiladi: *Hovuzning ikki yonidagi ikki supani xonanda va sozandalar egallagan, sozlarning kuyi bog`dagi bulbullar ovozigacha qo`shilib, yuraklarda shirin orzular uyg`otardi.* (O. Yoqubov, Ko`hna dunyo.)

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1984. – III жилд. – Б. 98.

Sozchi esa *sozanda* so`zining dialektal varianti bo`lib, aynan *sozanda*, *mashshoq* ma`nosini anglatadi: *Qurbon sozchi garmon sadaflarini bosib, ajoyib sehrli kuylar hosil qilar, o`zi yozgan she`rni kuyga solib, qo`shiq aytardi* (J. Sharipov, Xorazm.)¹

Navozanda so`zi forscha bo`lib, eski o`zbek tilida *xonanda*, *sozanda*, *kuylovchi* ma`nolarini anglatgan:

Qilsa navozandalar ohangi rud,

Ahli g`ino tortsa dilkash surud.

(Hayrat ul-abror, 51.)

Navozanda hozirgi o`zbek tilining kitobiy uslubida *kuy ijro etuvchi*, *navo qiluvchi*; *sozanda* ma`nolarida qo`llanadi: *Qurbon sozchi garmon sadaflarini bosib, ajoyib sehrli kuylar hosil qilar, o`zi yozgan she`rni kuyga solib, qo`shiq aytardi*. (J. Sharipov. Xorazm).²

*Mug`anniy* ham shu mavzuiy guruhga mansub bo`lib, *mutrib*, *sozanda*; *ashulachi*, *xonanda* ma`nolarini anglatadi:

Mayg`a ohang et, Navoiykim, mug`anniy har zamon

Aysh tahrisin ayon aylar lisoni ud ila.

(Xazoyin ul-maoniy, II b. – 542)

Arabcha ***mashshoq*** so`zining asl lug`aviy ma`nosi o`qituvchi, ustoz; usta bo`lib, hozirgi o`zbek adabiy tilida *xalq cholg`u asboblari*da *musiqacha* *asbobi chaluvchi* *sozanda* ma`nosida qo`llanadi: *Barot polvon “dodxoh kelibdi, shekilli”, deb samovar tomonga qaragan edi, dutor, tanbur, g`ijjak, nay, doira ko`tarib kelayotgan mashshoqlarga ko`zi tushdi*. (M. Ismoilov, Farg`ona tong otguncha)

Demak, *mashshoq* so`zining ma`nosi hozirda toraygan.

*Cholg`uvchi* so`zi ham *cholg`u chaluvchi* *sozanda*; *musiqachi* ma`nosi anglatadi: *Ozodaxon cholg`uvchilar bilan yangi aytiladigan qo`shiq haqida pichirlashib turgan edi*. (N. Aminov, Qahqaha.)

Alisher Navoiy asarlarida *raqqos* so`zi quyidagi ma`nolarda qo`llangan:

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-жилд. – Б. 545.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-жилд. – Б. 8.

1) o`yinchi:

Va to`rt ming uyluk sozanda va go`yanda va raqqos va ahli tarab Hindistondin ko`churub olib keldiki, holo bumamolikda lo`lilar alar naslidindur.

(Tarixi mulki ajam, XIV – 220;)

2) tipirlovchi, bezovta:

*Mehmon bo`lmoq emish jon uyida
Yorkim, ko`nglum o`lubtur raqqos.*

(Xazoyin ul-maoniy, IV b.– 280)¹

Raqqos so`zi asli arabcha bo`lib, o`yinga, raqsga tushuvchi ma`nosini anglatadi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida raqsga tushuvchi san`atkor erkak; o`yinchi ma`nolarida ishlatiladi: Zangiota sayridagi bazmda nog`ora va childirma avjga chiqqan, surnaylar chiyillagan, o`rtada yosh raqqoslar o`yin tushib turar edi.

(M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari.)²

O`yinchi 1) O`yinchi. Sfdsh; o`yinga tushuvchi, o`ynayotgan, yaxshi o`ynaydigan. O`yinchi yigit chetga chiqishi bilan kipriklariga surma qo`ygan... yo`g`on bir juvon o`rtaga chiqib, yo`rg`alay boshladi. (P.Tursun, O`qituvchi.)

2) raqsga tushuvchi shaxs; raqqos yoki raqqosa. SHo`x yigitlar o`yinchiga xushomad qilar, qiyqirishar edi. (P.Tursun, O`qituvchi.)³

Hofiz – 1. saqlovchi, himoya qiluvchi:

*Qur`ong`a sen o`lg`an kibi yakson hofiz,
Bo`lsun sanga barcha ishda Qur`on hofiz.*

(Xazoyin ul-maoniy, I b. – 756)

2) yoddan biluvchi; Qur`onni yoddan biluvchi qori:

...Alar naz holatida va mavt sakarotida erdilar, hech hofiz hozir ermas erdikim, alar boshida qur`on o`qug`ay. Bu mahalda Xoja Dehdor yetishti. Alarning vido diydorlarig`a musharraf bo`lub, qur`on o`qug`ali boshladi...

(Xamsat ul-mutaahayyirin, XIV- 63;)

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – II жилд. – Б. 615.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 3-жилд. – Б. 361.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-жилд. – Б. 140.

3) ashula aytuvchi, hofiz:

*Chekti bulbul kibi ming lahn ila doston hofiz,
Yo`q aningdek yana bu davrda xushxon hofiz.*

(Xazoyin ul-maoniy, II a. – 162)

*Hofiza – yodlash, yoddan saqlash, yodlash mahorati, yodlab qolish quvvati:
Debturki, haq subhonahu va taolo manga hofiza berib erdiki, har ne qalamim
taxtig`a kirs, yodimdin chiqmas erdi.*

(Nasoyim ul-muhabbat, XV – 119.)

Navogo` – kuychi, ashulachi, mutrib:

*Ko`zining nozi eldin eltib uyqu,
Anga uyqu keturmakka navogo`.*

(Farhod va Shirin, 34.)

Xonanda – hofizlik, ashula aytishlik:

*Shahrning sozanda va xonanda va go`yandasi doim alar suhbatida hozir
bo`lur erdi. (Holoti Sayyid Hasan Ardasher, 527.)*¹

So`zlashuv tilda **otarchi** so`zi ham kuzatiladi va to`y va bazmlarda mo`may pul topishga moslashgan musiqachi, ashulachi, raqqosa ma`nosini anglatadi: Esonboy suratdagi to`yma-to`y yuradigan shu qishloqlik otarchini tanidi. (“Yoshlik”).²

Ashulachi – ashula aytuvchi xonanda. Qo`ng`iz mo`ylovli, gavgasi buzuq ashulachi o`rnidan turib, torini cherta boshladi. (N. Aminov, Qahqaha.)

O`zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida san`at sohalari bilan bog`liq kasb-hunar nomlari mikromaydonida ham ma`no torayishi, ma`no kengayishi, ma`no o`zgarishi kabi semantik o`zgarishlar ro`y bergan.

Tahlillardan ko`rinadiki, zamonaviyligi nuqtai nazaridan san`at sohalari bilan bog`liq kasb-hunar nomlaridan quyidagilar arxai kasb-hunar nomlari: *ayol-g`uchi, go`yanda, mashshoq, navozanda, mug`anniy, irchi.*

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 5-жилд. – Б. 38.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 4-жилд. – Б.153.

O`tmishda *go`yanda, mashshoq, navozanda, mug`anniy, irchi, hofiz, xonanda, sozanda, cholg`uvchi, musiqachi, sozchi, raqqos* kabi leksemalar ayrim ma`no xususiyatlari bilan farqlansa-da, san`atkor, ya`ni san`at bilan shug`ullanuvchi, ma`lum bir san`at egasi tushunchasini ifodalagan. Hozirda bulardan *hofiz, xonanda, shoir, sozanda, cholg`uvchi, musiqachi, raqqos* kabi lug`aviy birliklarigina iste`molda qo`llanadi, qolganlari esa til lug`at tarkibining eskirgan qatlamiga mansub.

Mazkur lug`aviy birliklar, avvalo, *san`atkor* leksemasi ostiga birlashadi va turli san`at sohalariga oid kasb-hunar nomlarini ifodalaydi. Ularning umumiy semasi bir xil bo`lsa-da, qo`shimcha ma`no ottenkalari bilan farqlanadi.

San`atga doir kasb-hunar nomlari doirasida folklor san`ati ham alohida kichik guruhni tashkil etadi. Folklor ijodkorlari va ijrochilarini xalq orasida *baxshi, dostonchi, shoir, jirov, jirchi, oqin, oxun, sannoch // sannovchi, yuzboshi, soqi, sozanda, sozchi, xalfa* deb ataydilar. Mazkur lug`aviy birliklardan *dostonchi, baxshi* adabiy variantlar bo`lib, qolganlari asosan sheva va lahjalarga xosdir: Xorazmda, Qo`qon va Ohangaron atroflarida, Buxoro viloyatining Olot va Qorako`l tumanilarida “*baxshi*”, Samarqand viloyati tumanlari, Navoiy viloyatining Xatirchi, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Kitob, Dehqonobod, Ko`kabuloq, G`uzor Chiroqchi, Koson tumanilarida “*shoir*”, Navoiy viloyatining Nurota, Navoiy, Konimex, Jizzax viloyatining ayrim tumanilarida “*jirov*”, Sirdaryo viloyatining ayrim joylarida “*oqin*”, Farg`ona vodiysida “*sannovchi*”, “*oxun*”, Surxondaryoning Denov, Sho`rchi, Boysun, Sherobod tumanlari atrofida “*yuzboshi*”, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim yerlarida “*sozanda*”, Janubiy Tojikiston o`zbeklari orasida “*soqi*”, Janubiy Qozog`iston o`zbeklari orasida “*jirchi*”, Xorazmda garmonda kuylovchilarni “*sozchi*”, ayol dostonchilarni “*xalfa*” deb yuritadilar. Ayrim joylarda “*baxshi*” atamasi dostonni musiqa asbobisiz aytuvchilarga nisbatan ham qo`llanadi.¹

Baxshi so`zi asli sanskritcha bhikshu so`zidan olingan bo`lib, *budda ruhoniysi, donishmandi; duoxon; darvesh* degan lug`aviy ma`nolarni anglatadi.

¹ Ўзбек фольклори очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 12-13.

O'zbek tilida *tabib*, *lavozim* ma'nolari bilan bir qatorda *xalq qo'shiqlari* va *dostonlarini yoddan kuylovchi shoir* ma'nosida ham qo'llanadi.¹

T. Mirzaevning e'tirof etishicha, baxshi xalq dostonchisi ma'nosida folklorshunoslikning asosiy terminiga aylangan.²

Jirov so'zi umumturkiy xarakterga ega bo'lib, o'zbek, qoraqalpoq, qozoq xalqlarida doston, terma aytib kuylovchi baxshi ma'nosida qo'llanadi.³ *Jirov* so'zi sof turkiy bo'lib, qo'shiq ma'nosidagi *yır* otidan *-a* qo'shichasi vositasida yasalgan fe'ldan *-v* qo'shimchasi vositasida yasalgan, til taraqqiyoti davomida so'z boshidagi *y* undoshi *j* undoshiga, ikkinchi bo'g'indagi *a* unlisi *o* unlisiga almashgan hamda *ı* unlisi qattqlik belgisini yo'qotgan: *yır + a + v > yırav > jırav > jirav > jirov*.⁴

Jirchi ham mazkur so'zning fonetik varianti bo'lib, *u yır* otidan *-chi* shaxs oti yasovchi qo'shimcha vositasida yasalgan. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati" da qayd etilmagan.

Oqın esa forscha bo'lib, aslida *o'qimishli odam* lug'aviy ma'nosini anglatadi. Qozoq va qirg'iz tillarida, jumladan, ayrim o'zbek shevalarida *badihago'y shoir*, *kuychi*; *xalq shoiri*; *baxshi* ma'nolarida qo'llanadi.⁵

O'zbekistonning janubiy tumanlarida, aniqrog'i, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida dostonchilar *yuzboshi* deb ataladi.⁶ Masalan, *Sherna yuzboshi* kabi.

Oxun asli forscha *oxund* so'zidan olingan. "O'zbek tilining izohli lug'ati" da *ilmli kishi*; *mulla*, *domla*; *so'zlashuv tilida uyg'urlarga*, *qashqarliklarga qo'yilgan laqab* ma'nolarini anglatishi qayd etilgan.⁷

Namangan guruh shevalarida dostonchini *sannoch* // *sannovchi* deb yuritiladi. Bizningcha, mazkur so'zlar aynan bir so'zning variantlari bo'lib,

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б. 180.

² Ўзбек фольклори очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 13-14.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 2-ж. – Б. 95.

⁴ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – Б.103.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 3-ж. – Б. 179.

⁶ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2005. – 10-ж. – Б. 310.

⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 3-ж. – Б. 161.

gapirmoq, aytmoq ma`nosidagi *sannamoq fe`l* asosidan *-ch, -chi* ot yasovchi qo`shimchalari vositasida yasalgan.

Shoir folklorshunoslikda baxshi va oqinlar ismiga hurmat yuzasidan qo`shib ayiladigan so`z.¹ *Ergash shoir, Po`lkan shoir, Islom shoir* kabi.

Xorazm vohasida mahalliy og`zaki ijod namunalarini ijro etuvchi ayol *xalfa* deb yuritiladi.<sup>2</sup> Xalfalar faoliyat ko`rsatish sharoitiga ko`ra ikki yo`nalishga bo`linadi:

1) sozi xalfa – to`y va bazmlarda qo`shiqlar aytuvchi;

2) kitobiy xalfa – ta`ziya va marosimlarda diniy kitoblarni o`quvchi.³

Masalan, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon xalfalar Xorazm xalfachiligining yirik vakillaridir. Onajon xalfa (1885-1952) – Xorazmning mashhur xalfalaridan bo`lgan, shoira, xonanda va raqqosa sifatida shuhrat qozongan.⁴

Badikxon, badikchi so`zlari aynan bir so`zning fonetik variantlari bo`lib, *bemorni so`z yoki ashula aytish, duoxonlik, avrash bilan davolovchi* shaxs tushunchasini anglatadi.⁵

Askiyachi // askiyaboz – askiya aytuvchi, askiya aytishga usta odam. Shuningdek, o`zbek tilida *askiyachi* o`rnida ko`p ma`noli *qiziq//qiziqchi* so`zlari ham bir ma`nosi bilan ishlatiladi. *Yusufjon qiziq,, Ortiq qiziq, Qodir qiziq, Ashir qiziq, Nazir qiziq* kabi o`zbek qiziqchilari mashhurdirlar.

*Latifaboz, latifachi, latifago`y* so`zlari arabcha *latifa* asosidan yasalgan bo`lib, *latifa aytuvchi, latifalar ijod etuvchi* ma`nolarini anglatadi.

Laparchi – lapar aytuvchi.

*Cho`pchakchi* o`zbek tilida *topishmoq to`quvchi, ertak aytuvchi, ertakchi* ma`nolarini anglatadi.⁶

Eski o`zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida ham bir qancha xalq ijodkorlarini ifodalovchi lug`aviy birliklar kuzatiladi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 4-ж. – Б. 591.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 4-ж. – Б. 381.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2005. – 9-ж. – Б. 364.

⁴ Бу ҳақида қаранг. Оллаберганова С. Хоразм фольклори тарихидан // Тил ва адабиёт таълими, 2010. – № 6. – Б. 49.

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 1-ж. – Б.135.

⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 4-ж. – Б. 527.

Dastonsaro – doston aytuvchi, kuylovchi, xushxon:

Bu gulshan bulbulu bo`ston saroyi,

Dema bo`stonsaro, dastonsaroyi.

(Farhod va Shirin, 217.)

Yirov – jirov, baxshi:

Ey yirov, sen ham eshikni ko`rguz,

Yo to`g`on birla ulug`irni tuz.

(Xazoyin ul-maoniy, IV b-698.)

Bu aynan o`zbek shevalaridagi *jirov* so`zining varianti hisoblanadi.

Masalgo`y – masal aytuvchi; hikoyatchi, rivoyatchi:

Mavloni Tusi... masalgo`y va g`azalgo`y erdi.

(Majolis un-nafois, 22.)

Afsonaguzor – hikoyat aytuvchi, sarguzashtlar so`zlovchi:

*Tujjori sayohatshior aqolim va buldon holidin xabardor, ajoyibdin
afsunguzor va g`aroyibdin nodira guftor.*

(Mahbub ul-qulub, XIII-26.)

Bazlago`y – latifa, askiya aytuvchi.

Zarofat holatida bazlago`ylar,

Atoridqa qilib har dam g`ulular.

(Farhod va Shirin, 30.)

*Go`yanda* – qissago`y, afsona aytuvchi, qo`shiq aytuvchi, baxshi.

*Boysung`ur Mirzo... xattot va naqqosh va sozanda va go`yanda muncha
benazir kishikim aning tarbiyatidin aroga kirdi.*

(Majolis un nafois, 199.)

Fasonapayvand – hikoya aytuvchi, dostonchi:

Chun bo`yla bo`lub fasonapardoz,

Andin so`ng etib bu nukta og`oz.

(Layli va Majnun, 737.)

Fasonasigol – hikoyachi, dostonchi, sarguzasht aytuvchi:

Bo`ldi xushhol o`lub fasonasigol,

Ki fasohatidin etti xalqni lol.

(Sab`ai sayyor, 1069.)

Qissaxon – hikoyachi, dostonchi, baxshi:

Qissasoz – bekor va qissaxon – harzaguftor; har kim ma`junnok yo bangi, ko`nglida aning ma`rakasi ohangi.

(Muhokamat ul-lug`atayn, IIa-246.)

Tahlillardan ko`rinadiki, o`zbek tili va uning sheva hamda lahjalari xalq og`zaki ijodi ijrochilarini ifodalovchi so`zlarga boy.

Farg`ona vodiysida davolovchi shomonlarni *baxshi*, *parixon*, *folbin* deb atashadi. Janubiy Qozog`iston o`zbeklari shomonlarni “taub” (arabcha tabib, vrach) deb ataydilar, ba`zida o`zbeklar shomonlarni “*qushnoch*” yoki “*qora qushnoch*” ham deyishgan. Xorazm vohasida shomonlarni asosan “parixon” deb atashgan. Shimoliy Afg`oniston o`zbeklarida ham odamlarni ruhlar yordamida davolovchi kishilarga nisbatan “*baxshi*” va “*folbin*” atamasi qo`llangan bo`lsa-da, bu mintaqada ikkinchi termin ostida keng ma`noda fol ochuvchi kishilar tushunilgan.

2.2. Kasb-hunar nomlari guruhidagi ma'naviy o'zgarishlar

Bir umumiy ma'noga ega bo'lgan (denotativ ma'nosi bir xil), qo'shimcha ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishidagi xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so'zlar sinonimlar deyiladi.¹

Sinonimlar ma'nodosh so'zlar bo'lib, o'zlari ifoda qilayotgan narsa va hodisalarning har xil belgilarini ifodalaydi. Natijada ularda qo'shimcha ma'nolar mavjud bo'ladi, ana shu ma'nolar evaziga ular bir-biridan farq qiladi. Ularni birlashtirib turadigan narsa esa sinonim so'zlardagi yetakchi ma'nodir. Kasb-hunar nomlari orasida ham sinonimiya hodisasi kuzatiladi. Masalan: *tabib, vrach, doktor, shifokor* so'zlari o'zaro ma'nodosh hisoblanadi.

Ma'nodosh so'zlarning yig'indisi sinonimik qatorni tashkil etadi: o'qituvchi, muallim, ustoz kabi. Har bir guruhdagi ma'nodosh so'zlarda **dominanta** deb yuritiluvchi asosiy so'z bo'ladi.

Ikki va undan ortiq so'zni o'zaro sinonim qiladigan narsa bu so'zlar semantik strukturasidagi asosiy qismning, ya'ni leksik ma'noning bir xilligi, leksik ma'noni yuzaga keltiradigan komponentlarning (semalarning) bir xil bo'lishidir. Shuning uchun ham ikki yoki undan ortiq so'zning o'zaro birlashtiradigan (sinonim qiladigan) ma'nosining izohi bir xil bo'ladi.

Sinonimlar asosan ikki yo'l bilan paydo bo'ladi: birinchidan, har bir tilning o'z ichki imkoniyatlari asosida, ikkinchidan, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar hisobiga: *tilshunos – lingvist, dorigar – farmasevt* kabi.

O'zbek tili lug'at tarkibida eskirgan va tarixiy kasb-hunar nomlari salmoqli o'rin tutadi. O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida kasb-hunar nomlari mikro-maydonida ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no o'zgarishi kabi semantik o'zgarishlar ro'y bergan. Buni birgina *savdogar* tushunchasini ifodalovchi lug'aviy birliklar misolida ham ko'rishimiz mumkin. O'tmishda *allof, bozurgon//bozorchi*,

¹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 88.

*savdopesha, sotg`uchi // sotquchi// sotuvchi* kabi leksemalar ayrim ma`no xususiyatlari bilan farqlansa-da, *savdogar*, ya`ni *savdo-sotiq ishlari bilan shug`ullanuvchi shaxs* tushunchasini ifodalagan. Hozirda bulardan *savdogar, bozorchi, sotuvchi, tijoratchi* lug`aviy birliklarigina iste`molda qo`llanadi, qolganlari eskirgan qatlamga mansub.

Sinonimlarning paydo bo`lishi til lug`at tarkibining boyib, yangilanib borishining garovidir. Ular yordamida fikr aniqroq va maqsadga muvofiqroq ifodalanadi.

O`zaro sinonim bo`lgan so`zlar ma`lum bir uslubga bo`lgan munosabatiga ko`ra ham bir-biridan farqlanishi mumkin, ya`ni sinonim adabiy nutq uslublarining ma`lum bir turiga oid bo`lishi yoki uslubiy nuqtai nazaridan betaraf bo`lishi mumkin. Masalan, *o`qituvchi, muallim, murabbiy ustoz* kasb-hunar nomlaridan *o`qituvchi* asosan so`zlashuv uslubida, *ustoz* badiiy uslubda, *muallim, murabbiy* so`zlari ilmiy uslubda qo`llanadi.

Sinonim so`zlar qo`llanish darajasiga ko`ra farqlanishi, ya`ni ba`zisi faol qo`llanishi, boshqasi esa kam qo`llanishi mumkin: hozirgi o`zbek adabiy tilida *dorigar* – *farmasevt* kasb-hunar nomlari *dori tayyorlovchi, dori sotuvchi* ma`nolarini anglatga ham, hozirgi kunda *farmasevt* so`zi faol qo`llanadi. Bu tilshunoslikda **dubletlik** deb yuritiladi.

Dublet grekcha “*ikkilik*” deganidir. Dubletlik – teng semantik xususiyatga ega bo`lgan lug`aviy birliklar, aynan bir xil tushunchani beradigan lug`aviy birlik.¹

Ilmiy manbalarda dubletlik hodisasini sinonimlarning bir (turi) ko`rinishi sifatida qayd etiladi. Ayrimlarida dubletlik to`liq yoki mutlaq sinonimiya deb qaraladi.

Dubletlik tilning lug`aviy sathiga xos bo`lib, ayrim kasb-hunar nomlari doirasida buni ko`rishimiz mumkin: *jarroh* – *hirurg, stomatolog* – *tish shifokori, pedagog* – *o`qituvchi, tilshunos - lingivist*.

¹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 37.

Dubletlikni tilshunoslar o`tkinchi hodisa deyishadi. Dubletlik holatidagi lug`aviy birliklardan biri vaqtlar o`tishi bilan iste`moldan chiqib ketadi, ya`ni arxaizmga aylanadi. Masalan, *sayyod* – *ovchi* kasb-hunar nomlari oldin o`zaro dubletlik hosil qilgan bo`lsa, hozirgi kunga kelib *sayyod* so`zi arxaizmga aylangan. Bunday kasb-hunar nomlarini tilimizda juda ko`plab uchratish mumkin: *buxgalter* – *muhosib*,

Qadimiy va muqaddas ona tilimiz – o`zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga, taraqqiyoti va takomilida yangi davr boshlanganiga salkam chorak asr bo`ldi. 1989-yil 21-oktyabrda O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni qabul qilindi.

O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili to`g`risida”gi Qonuni o`z mazmun-mohiyati bilan o`zbek tili taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Qonun talablarini bajarishga intilish bois mustaqillik davrida boshqa lug`aviy birliklar qatori juda ko`p kasb-hunar nomlari tiklandi, iste`molga qaytdi, hozirda faol qo`llanmoqda. Hozirga kelib, tilimiz lug`at tarkibidagi o`zgarishlar va yangilanishlar natijasida kasb-hunar nomlari doirasida ham dubletlik yuzaga keldi: *arxitektor* – *me`mor*, *astrolog* – *munajjim*, *instruktor* – *yo`riqchi*, *korrespondent* – *muxbir*, *arxeolog* – *qadimshunos*, *vrach* – *shifokor*, *hakim*, *injener* – *muhandis*, *diktor* – *suxandon*, *buxgalter* – *hisobchi*, *muhosib*, *agronom* – *hosilot*, *sekretar* – *kotib*, *kotiba*, *redaktor* – *muharrir*, *korektor* – *musahhih* kabi.¹ Biroq bu kasb-hunar nomlarining barchasi tilimizga singigani yo`q. Masalan, *buxgalter* so`ziga muqobil sifatidagi *hisobchi* so`zi tilga singib faol qo`llanayotgani holda, *muhosib* iste`moldan chiqib ketdi. Atamashunoslarning fikricha, *hisobchi* so`zini *buxgalter* so`ziga muqobil tarzda iste`molda bo`lishi noto`g`ri. Chunki “hisobchi” rus tilidagi “*счетовод*”, “*учетчик*” so`zlariga to`g`ri keladi. Shunday bo`lsada til egasi bo`lmish xalq tomonidan *hisobchi* so`zi faol qo`llanmoqda.

Xuddi shunday holat *diktor*, *arxeolog* so`zlarining muqobil bo`lgan *suxandon*, *qadimshunos* so`zlarida ham kuzatiladi.

¹ Qarang. Бектемиров Х., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002. – 48 б.

1999-yilda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo`mitasi Respublika til komissiyasi va Oliy Majlis tasdiqlagan o`zlashma, baynalminal termin va so`zlarni e`lon qildi. Shu ro`yxatda *arxeolog, buxgaler, vrach, diktora, militsioner, notarus, ofitser, redaktor* kabi o`zlashma kasb-hunar nomlari qo`llanishi tavsiya etildi. Shuningdek, tilimizga yangi kirib kelgan o`zlashma kasb-hunar nomlariga ayrim muqobillar ham tavsiya etilgan: *biznesmen – bizneschi, makler – dallol, biznesmen – bizneschi, avtor – muallif, inspektor – nazoratchi, redaktor – muharrir* kabilar.

Tahlillar shuni ko`rsatadiki, ayrim kasb-hunar nomlarini shoshma-shosharlik bilan almashtirish yaramaydi. Masalan, *vrach* so`zi ruscha. Bu so`zni *shifokor, hakim* so`zlari bilan almashtirib qo`llash kuzatiladi, biroq *shifokor* umumiy ma`noga ega. Masalan, *hamshira* ham shifokor. *Vrach* so`zi o`zbek tilida sanitariya vrachi, veteranariya vrachi (*vetvrach*) kabi birikmalarda ham qo`llanadi. Bunday hollarda sanitariya hakimi, veteranariya hakimi deb bo`lmaydi. Shu bois Atamashunoslik qo`mitasi *vrach* so`zini qo`llanishini tavsiya etagan.¹

Diktora (lot. *dictor* – so`zlovchi) so`zi *efirga uzatilayotgan matnni o`qiydigan xodim* ma`nosini anglatadi. Keyingi vaqtlarda unga muqobil sifatida *suxandon* so`zi qo`llandi. Biroq fors-tojikcha “*suxandon*” so`zi boshqa ma`no, ya`ni *gapga chechan, notiq* ma`nosini anglatadi. Demak, *diktora* so`zini qo`llanishi maqbuldir.

¹ Тил – дарё / Тўпловчилар: А. Суюн, А. Султон. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – Б. 12.

Bob bo'yicha xulosalar

1. O'zbek tilshunosligida leksikani semantik maydon asosida o'rganish tilimizga sistem-struktur metodlarning kirib kelishiga borib taqaladi. Leksemalarni tematik maydonlarini, leksemaning mazmuniy guruhlari va to'dalarini, leksemaning ma'noviy munosabatlarini o'rganish o'zbek tili leksikologiyasining istiqbolli yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi.

2. O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida san'at sohalari bilan bog'liq kasb-hunar nomlari mikromaydonida ham ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no o'zgarishi kabi semantik o'zgarishlar ro'y bergan.

3. San'atga doir kasb-hunar nomlari doirasida folklor san'ati ham alohida kichik guruhni tashkil etadi. Folklor ijodkorlari va ijrochilarini xalq orasida *baxshi, dostonchi, shoir, jirov, jirchi, oqin, oxun, sannoch // sannovchi, yuzboshi, soqi, sozanda, sozchi, xalfa* deb ataydilar. Mazkur lug'aviy birliklardan *dostonchi, baxshi* adabiy variantlar bo'lib, qolganlari asosan sheva va lahjalarga xosdir.

4. Dubletlik tilning lug'aviy sathiga xos bo'lib, ayrim kasb-hunar nomlari doirasida buni ko'rishimiz mumkin: *jarroh – hirurg, stomatolog – tish shifokori, pedagog – o'qituvchi, tilshunos - lingivist*.

3-bob. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining derivatsion va leksikografik xususiyatlari

3.1. Kasb-hunar nomlarining yasalishi tahlili

Til – ijtimoiy hodisa va eng muhim aloqa vositasi. Shuning uchun u doimo taraqqiyotda va rivojlanishda bo`ladi. Natijada, uning tarkibi turli tipdagi o`zgarishlarga uchraydi: ba`zi so`zlar o`zgarib faol qo`llanishdan chiqadi, qo`llanishi chegaralanib, bora-bora umumiste`moldan qoladi; yangi so`zlar paydo bo`lib, ular leksikani to`ldiradi, boyitadi; ayrim so`zlarning ma`nolarida o`zgarish yuz beradi.

Til leksikasining boyishi va taraqqiyotida so`z yasash eng muhim omildir. Bu kasb-hunar nomlarida ham yorqin kuzatiladi.

O`zbek tilida 1000 ga yaqin kasb-hunar nomlari mavjud bo`lib, ular asosan so`z yasovchi qo`shimchalar yordamida yasalgan.

O`zbek tilshunosligi taraqqiyotida kasb-hunar nomlarini yasovchi affikslarning o`rni va ahamiyati beqiyos. O`zbek tilida hozirgi kunda **170 dan ortig`** so`z yasovchi qo`shimcha mavjud bo`lib, ulardan **15 dan ortig`i** kasb-hunar nomlari yasashda qo`llanadi.¹

Hozirgi o`zbek adabiy tilida kasb-hunar nomlarini yasovchi qo`shimchalar quyidagilar:

-chi kasb-hunar nomlarini yasovchi eng sermahsul affiks hisoblanadi. Xususan, o`zbek tilida 1000 yaqin kasb-hunar nomi bo`lsa, 300 ga yaqin kasb-hunar nomlari shu qo`shimcha yordamida yasalgan: *tarixchi, bo`zchi, bo`yoqchi, xizmatchi, dengizchi, bokschi, musiqachi, baliqchi, lug`atchi, meshkobchi, cholg`uvchi, musiqachi, etikchi, o`roqchi, g`aznachi, qo`shiqchi, arqonchi, to`quvchi, quyuvchi, uchuvchi, yigiruvchi* kabi.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoschisi Mahmud Qoshg`ariy “Devonu lug`otit turk”da turkiy tillar so`z yasalishi haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Bu affiks bilan

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. 5-жилд. – Б. 572-591.

ot yasalishi XI asrda turkiy tillarning barchasi uchun umumiy holat ekanligini Mahmud Koshg'ariy o'z asarida takidlab o'tadi. Shuningdek, asarda shaxs oti yasovchi -chi qo'shimchasining imkoniyati ko'rsatilib, bu qo'shimcha yordamida 40 ga yaqin shaxs oti yasalganligi kuzatiladi. Bulardan anglashiladiki, turkiy tillarda azaldan -chi affiksi vositasida kasb-hunar nomlari yasash an'anasi faol bo'lgan.

Kasb-hunar nomlarining ifodalovchi lug'aviy birliklar ko'proq -chi affiksi vositasida hosil qilingan va bu an'ana turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining barcha taraqqiyot bosqichlarida saqlanib qolgan. Fikrimizni Alisher Navoiy tomonidan fors-tojik tilida kuzatilmaydigan, o'zbek tiligagina xos bo'lgan -ch va -chi affikslari bilan mansab, hunar ma'nosidagi otlar yasalishi haqida fikr yuritilib, o'nlab dalillarni keltirilgani ham tasdiqlaydi.

A.Nurmonovning ko'rsatishicha, u garchi so'z yasalish tuzilishi bo'yicha fikr bildirmasa ham, lekin so'z yasashga asos, yasovchi vosita va yasalma tushunchalari haqida ma'lumotga ega bo'lgan.¹ Xususan, -chi yasovchi vositasining imkoniyati kengligi, asos qismga qo'shilib, bu qismning ma'nosi bilan bog'liq turli shaxs otlarini hosil qilishini bayon qiladi:

“Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ngg'ida “ch”, “yoy” ki, “chi” lafzidur, ottururlar, yo mansabning yo hunarning yo peshaning izhori uchun; forsiyda yo`qtur, balki alar ham turkcha ayturlar.

Mansabda andoqki, qo`rchi va suvchi va xizonachi va kerak-yarog`chi va chavgonchi va nayzachi va shukurchi va yurtchi va shilonchi va axtachi yo`sunlig` ko`ptur”.²

Jumladan, “hunar va pisha egasi” ma'nosini bildiradi: *qushchi*, *qo`ruqchi*, *tamg`achi*, *jibachi*, *yurg`achi*, *xolvochi*, *kemachi*, *qo`ychi*, *qozchi*, *quvchi*, *turnachi*, *kiyikchi*, *tovushqonchi* kabi so'zlarni ham -chi bilan yasalishi haqida fikr yuritilgan. Bundan ko`rinib turibdiki, hozirgi o'zbek tilidagi -voz (kaptarvoz), -paz (shirimonpaz, xolvopaz), -boqar (qo`yboqar), -soz (tamg`asoz) kabi bir qator ot

¹ Нурмонов А. Ўша асар, 91 -бет.

² Алишер Навоий. Ўша асар, 22-б.

yasovchilar vazifasini ham Alisher Navoiy davrida, eski o`zbek eski o`zbek tilida *-chi* affiksi bajargan.

Shuningdek, hozirgi o`zbek adabiy tilida *-chi* affiksi bilan yasalgan kasb-hunar nomlarining salmog`i ko`pligi ham mulohazalarimizning yorqin dalilidir. Hatto hozirda ham *-chi* vositasida kasb-hunar nomlari yasalishi davom etmoqda: *biznechi, birjachi, kompyuterchi, tijoratchi, soliqchi, paynetchi* kabi.

Chunonchi, “Devonu lug`otit turk” asarida *-chi* affiksi bilan yasalgan: *ajaqchi, emchi, etukchi, etmakchi, etchi, temurchi* kabi yasama kasb-hunar nomlari kuzatiladi.

O`zbek tilshunosligida tarixiy so`z yasalishi masalasini o`rgangan A.G`ulomov *-chi* qo`shimchasining tarixi va tarkibi xususida atroflicha fikr yuritadi. Uning fikriga ko`ra, *-chi* qo`shimchasi dastlab *-ch* shakliga ega bo`lgan, keyinchalik unga *-i* formanti qo`shilib, hozirgi ko`rinishga kelgan. Tadqiqotchining ko`rsatishicha, *-inchi* qo`shimchasi tarkibida ham *-chi* elementi mavjud.¹

O`zbek tilshunosligida so`z yasalish masalasi bilan shug`ullangan tilshunoslardan yana biri F.Abdullayevdir. U *-chi* qo`shimchasining genezisiga doir aniq bir qarash yo`qligini ko`rsatadi. U *-ch, -chil, -chin* kabi qo`shimchalar funksional jihatdan yaqinligini qayd qiladi.<sup>2</sup> Ozarbayjon tili so`z yasalishini chuquqr o`rgangan E.V.Sevortyan ham *-chi* va *-chil* qo`shimchalarini o`zaro yaqinligini ko`rsatgan.³

O`zbek tilshunosligida shaxs oti yasovchi *-chi* qo`shimchasining 9 xil ma`no ifodalash xususiyati ko`rsatib berilgan tadqiqot ishi M.Abdiyevga tegishlidir. O`zbek tilida shaxs oti yasovchi *-chi* qo`shimchasi vositasida yasalgan so`zlarning yanada ko`proq, aniqrog`i 23 xil ma`nosini professor Y.Tojiyev keltirib o`tgan.⁴

Hozirgi o`zbek adabiy tili materiallarining ko`rsatishicha, *-chi* qo`shimchasi bilan quyidagi tipdagi kasb-hunar nomlari yasaladi:

¹ Гулямов А. Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Аффиксация. Часть I. АДД. Тошкент, 1955. – С. 15.

² Абдуллаев Ф.А. -чи аффиксининг генезисига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1960. – № 6. – Б. 64.

³ Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. М.: Наука, 1966. – С.84.

⁴ Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. – Тошкент, 1991. – Б. 89.

1) faoliyat, kasb-hunar mashg'ulotning umumiy nomini, soha nomini (jins tushunchasini) bildiruvchi so'zlardan shu sohada faoliyat ko'rsatuvchi shaxs ma'noli ot yasaydi: *sportchi, san'atchi*. Faoliyatning ma'lum sohasiga mansub shaxsni bildirishi bilan *sportchi, san'atchi* so'zlari *dehqon, hunarmand* tub kasb-hunar nomlari bilan bir xil xususiyatga ega.

2) faoliyat sohasining, kasb-hunarning turlarini (tur tushunchasini) bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, sohaning, kasb-korning shu turida faoliyat ko'rsatuvchi (shug'ullanuvchi) shaxs ma'noli otlar yasaydi. Bunday shaxs otlarining yasalish asosi ma'lum bir kasb, hunar, o'yin va shu kabilarni bildiruvchi so'zlardan yoki kasb, hunar, o'yinga oid asbob-qurol, narsa-predmetni bildiruvchi so'zlardan yoki shu kasb, hunar, o'yinga oid asbob-qurol, narsa-predmetni bildiruvchi so'zlardan bo'ladi: *kurashchi, poygachi, suzuvchi, futbolchi, shaxmatchi, bokschi, qo'shiqchi, musiqachi, tanburchi* va boshqalar.

Muayyan narsani bildiruvchi so'zlardan ham *-chi* qo'shimchasi so'z yasalish asosi bildirgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs ma'noli otlar, ya'ni bir tipdagi shaxs otlari yasaydi. Lekin ularning har biri ikki xil ma'noga ega bo'lishi mumkin. Masalan, *gulchi, ko'kchi, nisholdachi, uzumchi* so'zlarinin hammasi "*asosdan anglashilgan narsa bilan shug'ullanuvchi shaxs*" ma'nosiga ega. Shu bilan birga ularning har biri:

1) so'z yasalish asosidan anglashilgan narsani yetishtiruvchi (tayyorlovchi) shaxs;

2) shu narsa bilan savdo qiluvchi (shu narsani sotuvchi) shaxs ma'nosiga ega.¹

O'zbek tilida juda faol qo'llanuvchi *-chi* affiksi turli kategoriyalarga oid kasb-hunar nomlarini yasaydi: *chorvachi, podachi, pillachi* kabi.

Texnik terminologik sistemada ham u texnikaning biror sohasida ish olib boruvchi, mashina, mexanizm va boshqa vositalarni boshqaruvchi ma'nosidagi shaxs nomlarini yasashga xizmat qiladi: *uchuvchi, haydovchi, boshqaruvchi, dastgohchi, to'quvchi, sozlovchi, yig'uvchi* kabi.

¹ Ҳоҗиев А. Ўзбек тили сўз ясаиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 64-65.

-chi affiksining yana bir xususiyati shundaki, u qator ruscha-internatsional soʻz yasovchi affikslarning ekvivalenti ham boʻlib kela oladi: *remontchi* (remontnik), *montajchi* (montajnik), *kombaynchi* (kombayner), *traktorchi* (traktorist) kabi.

-shunos affiksi ham faol qoʻllanadi hamda vazifasi jihatidan -chi affiksiga toʻgʻri keladi. Bu affiksi orqali **30 dan ortiq** kasb-hunar nomlari yasalgan: *tilshunos*, *oʻsimlikshunos*, *tuproqshunos*, *huquqshunos*, *tabiatshunos*, *urugʻshunos*, *siyosatshunos*, *adabiyotshunos*, *atamashunos*, *dostonshunos*, *matnshunos* kabi.

Bu affiks aslida tojik tilida qoʻshma soʻz yasovchi “*shinos*” boʻlib, oʻzbek tiliga soʻz yasovchi affiks sifatida oʻzlashgan emas, balki tojik tilidan oʻzlashgan, *javohirshunos*, *sheʼrshunos* kabi soʻzlar tarkibida boʻlgan. U (“*shinos*”) tojikcha *shinxotan* (“*bilmoq*”) feʼlining asosi boʻlib, “*biluvchi*”, “*oʻrganuvchi*” maʼnosiga ega boʻlgan.

Demak, birinchidan, tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi -*shinos* oʻzi birikkan soʻz bildirgan narsani biluvchi, oʻrganuvchi, u bilan shugʻullanuvchi shaxs maʼnosiga ega. Ikkinchidan, tojik tilidan oʻzlashgan soʻzlardan baʼzilarining -*shinos* qoʻshilgan qismi oʻzbek tilida ham qoʻllanadi. Bu hol ularni oʻzbek tilining ham yasama soʻzlaridek qilib koʻrsatadi, yaʼni, *zarshunos*, *sheʼrshunos* soʻzlari *sheʼr* va *zar* soʻzlariga -*shinos* ni qoʻshish bilan hosil qilingan yasama shaxs oti tasavvurini beradi. Shu tariqa oʻzbek tilida -*shunos* morfemasi, shaxs oti yasovchi -*shunos* affiksi paydo boʻldi.

Hozirda uning yordamida quyidagi maʼnoli otlar yasaladi:

1. Soʻz yasalish asosi anglatgan ilm-fan bilan shugʻullanuvchi shaxs (ilm kishisi, olim) maʼnoli ot yasaydi: *tarixshunos*, *adabiyotshunos*, *tilshunos* va boshqalar.

2. Soʻz yasalish asosidan anglashilgan narsani oʻrganish bilan shugʻullanuvchi shaxs maʼnoli otlar yasydi: *oʻlkashunos*, *tabiatshunos* kabi.

Oʻzbek tilining oʻzida -*shunos* qoʻshimchasi yordamida shaxs otlarining yasalishi taxminan XX asrning 20-yillaridan boshlangan.¹

¹ Ҳоҷиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 64-65.

Hozirda *-shunos* qo'shimchasi yordamida yasalgan so'zlarning ba'zilari ilgari yasalgan *-chi* qo'shimchasi yordamida yasalgan. Masalan, *tarixchi* (*tarixshunos*), *tilchi* (*tilshunos*) kabi. Lekin *-chi* qo'shimchasi *-shunos* affiksiga xos ma'noni to'laligicha, aniq qayd etolmaydi. Qiyoslang: *tilchi* (tildan dars beruvchi yoki til ilmi bilan shug'ullanuvchi) – *tilshunos* (til ilmi bilan shug'ullanuvchi shaxs, olim).

Hozirgi kunda ilm-fanning yangi-yangi sohalari yuzaga kelishi munosabati bilan shu sohalarga oid shaxsni (ilm kishisi, olimni) bildiruvchi otlarni hosil qilishda *-shunos* affiksi keng qo'llana boshladi: *san'atshunos*, *matnshunos*, *manbashunos*, *sharqshunos* kabi. Hatto aynan bir so'zdan *-chi* va *-shunos* qo'shimchasi yordamida boshqa-boshqa ma'noli shaxs otlari yasaladigan bo'ldi. Masalan: *siyosatchi* – *siyosatshunos*. *-shunos* qo'shimchasi ma'nosidagi ana shu o'ziga xoslik uning so'z (shaxs oti) yasash imkoniyatini chegaralab qo'yadi.

-kor fors-tojik tilidan o'zlashgan qo'shimcha bo'lib, asosan fors-tojikcha, o'zbekcha so'zlarga qo'shilib, o'zbekcha so'zlarni hosil qiladi. Bu qo'shimchanning tub turkiy so'zlarga qo'shilishi va o'zbekcha so'z yasashi unchalik mahsuldor emas: *binokor*, *kandakor*, *bastakor*, *ijodkor*, *san'atkor*

-kor affiksi qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan asosiy mahsulotlarni, ya'ni qishloq xo'jaligining tarmog'i, sohasini ko'rsatuvchi mahsulotlarni bildiradigan so'zlarga qo'shilib, asosdan anglashilgan mahsulotni yetishtiruvchi shaxs ma'noli kasb-hunar nomlarini yasaydi: *bedakor*, *zig'irkor*, *kartoshkakor*, *polizkor*, *sholikor* kabi.

-kor qo'shimchasi o'zbek tilining o'zida so'z yasaydigan qo'shimchaga aylangani bilan, uning yordamida yasalgan shaxs otlari sanoqli miqdorda. Shunday bo'lishining sababi, *-chi* qo'shimchasi. O'zbek tilidagi *-kor* affiksli ko'pgina shaxs otlari o'rinda *-chi* qo'shimchasi bilan yasalgan shaxs otlariga dublet bo'lib keladi: *pillakor* – *pillachi* kabi.

Lekin o'zbek tilidagi *binokor*, *paxtakor*, *g'allakor*, *shifokor*, *fazokor* kabi so'zlardagi *-kor* o'rnida *-chi* affiksini ishlatish noqulay. Chunki *-kor* affiksi zaminida mehnatning og'irligi, harakatning shiddati yotgandek seziladi.

-chi qo'shimchasi juda ko'p tipdagi shaxs otlarini, shu jumladan, -kor qo'shimchasi yasaydigan tipdagi shaxs otlarini ham yasaydi. Dalillar shuni ko'rsatadiki, tilning aniqlikka intilish xususiyati asosida -kor qo'shimchasi shaxs otlarining muayyan tipini, ya'ni so'z yasash asosidan anglashilgan mahsulotni yetishtiruvchi shaxs ma'noli otlarni (shaxs otlarini) yasash uchun xoslanyapti. Xoslanish esa hamma vaqt til birligining qo'llanish doirasini chegaralaydi. Qolaversa, qishloq xo'jaligining ko'rib o'tilgan sohalari, ularga oid mahsulotni bildiruvchi so'zlar sanoqli. Ana shu ikki omilning o'ziyoq -kor qo'shimchasining shaxs oti yasovchi sifatida sermahsul vositaga aylanishi uchun yo'l qo'ymaydi.

Xullas, fors-tojik tilidan o'zlashgan yasama so'zlar (qo'shma so'zlar) tarkibida mavjud bo'lgan -kor keyinchalik o'zbek tilida so'z yasovchi qo'shimchaga aylandi. Bu qo'shimchaning tub turkiy so'zlarga qo'shilishi va o'zbekcha so'z yasashi unchalik mahsuldor emas. U shaxs oti yasovchi boshqa qo'shimchalardan farqli holda, shaxs otining maxsus (muayyan) bir tipini yasaydigan bo'ldi. Aytilgan shu vazifa uchun mahsullanishi esa uning aslida "ekmoq", "sepmoq" ma'noli koridan so'zidan kelib chiqqaligi bilan izohlanadi.

-soz affiksi ham asli tojik tilidan o'zlashgan yasama so'zlar tarkibida bo'lgan. U tojik tilida qurmoq ma'noli soxtan fe'lining hozirgi zamon sifatdosh shakli bo'lib, otlarga qo'shib, asosdan anglashilgan narsani quradigan, yasaydigan, tuzatadigan shaxs otlari yasaydi: uysoz, muqovaso, soatsoz, tunkaso, miltiqsoz, kemaso, yo'lsoz, yog'ochsoz, oynaso kabi.

Tojik tilidan o'zlashgan yasama so'zlar tarkibida mavjud bo'lgan soz keyinchalik o'zbek tilining o'zida ham shaxs otlari yasaydigan bo'ldi. Bunga yo'l ochgan asosiy narsa tojik tilidan o'zlashgan tunkaso, muqovaso, soatsoz, miltiqsoz kabi ko'plab yasama so'zlar asosining (tunka, muqova, soat, miltiq kabi so'zlarning) o'zbek tilida ham borligi va soz ning so'z yasovchi ekani hamda qanday ma'noli so'z yasashi ham sezilib turishidir. Bu o'rinda ixchamlikka intilish qonuni amal qilishini ham e'tiborga olish kerak bo'ladi, ya'ni "quruvchi", "yasovchi", "ishlab chiqaruvchi" so'zlari o'rnida -soz qo'shimchasidan

foydalanib bu soʻzlarga xos maʼnolarni ixcham tarzda, aniq ifodalovchi yangi soʻzlar hosil qilina boshlandi.

-chi qoʻshimchasi *-soz* qoʻshimchasiga sinonim tarzda ham qoʻllanadi.

Affiksali sinonimiya – shakl tomondan har xil boʻlgan affikslarning semantik jihatdan bir xil – oʻxshash (yoki juda yaqin) boʻlishidir. Masalan: *sandiqsoz* - *sandiqchi* kasb-hunar nomlaridagi *-soz* va *-chi* affikslari.

Sinonimlarning bir-biriga tamoman teng, bir xil boʻlishi – absolyut sinonimlar deyarli uchramaydi, ular oʻzaro nimasi bilandir – biror tomoni bilan farqlanadigan – nisbiy sinonimlar boʻladi. Bu farqlar maʼnoda, uning ottenkasida, stilistik xususiyatida, qoʻllanishida, affiksatsiyadagi xususiyatida, aktiv-passivlikda, eskirgan-eskirmaganlikda, qoʻllanish doirasining keng-torligida, boshqa soʻzlar bilan birikishidagi (sintaktik) ayrimliklarda koʻrinadi.

Kasb-hunar otlarini yasovchi *-chi* qoʻshimchasi ham asosdan anglashilagan narsani tayyorlovchi, yasovchi maʼnoli otlar yasaydi. Masalan, *sandiqsoz*, *beshtsoz*, *imoratsoz* soʻzlari oʻrnida *sandiqchi*, *beshtchi*, *imoratchi* soʻzlarini bimalol qoʻllash mumkin. Lekin, birinchidan, ayni bir soʻzdan *-chi* qoʻshimchasi yordamida yasalgan soʻz “quruvchi”, “tayyorlovchi” degan maʼnoni aniq ifodalay olmasligi, hatto boshqa maʼno ifodalashi mumkin. Masalan, *traktorch*, *eksavatorchi* soʻzlari, asosan, “*traktor haydovchi*”, “*eksavator haydovchi*” maʼnosini bildiradi. *Traktorsoz*, *eksavatorsoz* soʻzlari esa *traktor* va *eksavator* ishlab chiqaruvchi degan maʼnoni hamma vaqt aniq ifodalaydi. Ikkinchidan, *-soz* qoʻshimchasi yordamida hosil qilinadigan baʼzi soʻz (asos)lardan *-chi* qoʻshimchasi yordamida soʻz yasalmaydi. Masalan, *shahar*, *yoʻl*, *uy* soʻzlaridan *-soz* qoʻshimchasi *shaharsoz*, *yoʻlsoz*, *uysoz* soʻzlarini hosil qiladi. Lekin, *-chi* qoʻshimchasi bilan shunday maʼnoga ega boʻlgan *uychi*, *shaharchi*, *yoʻlchi* soʻzlari yasalmaydi.

Demak, aniqlikka intilish talabi *-soz* qoʻshimchasining koʻrib oʻtilgan tipdagi kasb-hunar nomlarini yasash uchun maxsuslanishiga olib keldi. *-soz* qoʻshimchasi maʼnosida, “*quruvchi*” (“*yasovchi*”, “*ishlab chiqaruvchi*”) semasi bor. Ana shu semasi bilan u shaxs oti yasovchi barcha qoʻshimchalardan

farqlanadi. Shuning uchun ham u o`zbek tilidagi shaxs oti yasovchi qo`shimchalari qatori o`z o`rniga ega.

-furosh affiksi ham tojik tilidan o`zlashgan bo`lib, “sotmoq” ma`noli *furoxtan* fe`lining hozirgi zamon sifatoshi shaklidir. Shu xususiyat asosida furosh tojik tilida so`z yaslash asosidan anglashilgan narsani sotuvchi, shu narsa bilan savdo qiluvchi ma`noli kasb-hunar nomlarini yasaydi: *do`ppifurosh*, *choponfurosh*, *ko`katfurosh*, *eskifurosh*, *sabzifurosh*, *kartoshkafurosh* kabi.

O`zbek tilida “sotuvchi” degan ma`noni aniq ifodalaydigan shaxs oti yasovchi qo`shimcha yo`q edi. Bu hol *-furosh* qo`shimchasining o`zbek tiliga o`zlashtirishga yo`l ochgan. Uning yordamida hosil qilingan so`zlar u qadar ko`p emas. Lekin imkoniyat bo`lgan hollarda undan foydalanib, yangi-yangi so`zlar yasash mumkin. Bu qo`shimcha yordamida o`zbek tilida 30 dan ortiq kasb-hunar nomlari yasalgan. Masalan, qishloq xo`jaligi mahsulotlari bilan savdo qiluvchi shaxs ma`noli kasb-hunar nomlarini hosil qilish mumkin: *qovunfurosh*, *tarvuzfurosh*, *kartoshkafurosh*, *sabzifurosh*, *piyozfurosh* kabi.

-paz affiksi ham nafaol kasb-hunar nomini yasovchi qo`shimcha bo`lib, faqat taom pishirish bilan mashg`ul bo`luvchi kasb otlarini yasashdagina qo`llaniladi: *oshpaz*, *lag`monpaz*, *mantipaz*, *kabobpaz*, *novvotpaz*, *halvopaz*, *somsapaz* kabi.

Shaxs oti yasovchi *-chi* affiksi shu tipdagi boshqa affikslarga nisbatan, birdan ortiq tipdagi shaxs otlari yasash bilan ham, yasagan (yasayotgan) so`zlarning miqdori jihatidan ham faol hisoblanadi. Shaxs oti yasovchi *-furosh*, *-paz* qo`shimchalari esa juda kam miqdorda so`z yasaydi. Buning sababi *-chi* affiksining biron-bir qo`shimcha ma`noga yoki boshqa xususiyatga ega emasligi, *-furosh*, *-paz* affikslarining “shaxs” ma`nolaridan tashqari “*sotish*”, “*pishirish*”ni ham ifodalashidir: *atlasfurosh*, *kabobpaz*, *somsapaz* kabi.¹

-bon (forscha *qo`riqllovchi*, *saqllovchi asrovchi*) biror narsaga qarab turuvchi, uni saqllovchi, qo`riqllovchi shaxs ma`nosidagi ot yasaydi: *bog`bon*, *darvozabon*,

¹ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. 49-50.

saroybon kabi. *-bon* morfemasi ba`zan *-von* shaklida ham uchraydi: *soyavon*, *tarozivon* kabi. Hozirgi kunga kelib bu qo`shimcha kam mahsul qo`shimchalardan hisoblanadi.

-bon qo`shimchasi quyidagi ma`nodagi kasb-hunar nomlarini yasaydi:

1. Shaxsning kasb-kori, mashg`ulot turi: *bog`bon*, *darbon* kabi.
2. Mansab nomlarini yasaydi: *marzbon*, *posbon* kabi.
3. Fe`lning o`tgan zamon o`zagiga qo`shilgan holda kasb-kor nomini yasaydi: *didbon*.

-bon qo`shimchasi “saqlovchi, muhofaza qiluvchi” ma`nosida “Avesto”da *rapa* shaklida uchraydi. Sanskrit tilida ham xuddi shu shakl va ma`noni anglatadi. Mazkur qo`shimcha pahlaviy tilida *rap* shaklida ishlatilgan.

-do`z* affiksining qo`llanish doirasi ham cheklangan. Bu affiks biror narsani tikish bilan shug`ullanuvchi shaxs otlarini yasaydi. *Zardo`z, *gilamdo`z*, *do`ppido`z*, *mo`ynado`z* kabi kasb otlarini yasashda ishtirok etgan.

-kash affiksi kasb-kor, mashg`ulot egasi bo`lgan shaxs nomini yasashga xizmat qiladi.

Mazkur qo`shimcha, asosan, fors-tojikcha o`zlashma so`zlar tarkibida uchraydi, ba`zi hollardagina uning tub turkiy so`zlarga qo`shilishi kuzatiladi: *tuyakash*, *chirmandakash*, *chizmakash*, *termakash*, *yalovkash* kabi.

-dor affiksi tojikcha o`zlashma so`zlar tarkibida o`zbek tiliga kirib, predmet va belgiga ega bo`lishlik tushunchasini ifodalovchi quyidagi ma`nolardagi otlar yasashda ishtirok etadi:

- a) egalik va mashg`ulot ma`nosi: *chorvador*, *bog`dor*, *do`kondor* kabi;
- b) egalik va saqlovchilik ma`nosi: *muhrdor*, *mansabdor*, *jig`ador* kabi.

-vul qo`shimchasi kasb-hunar nomlarini yasovchi tarixiy qo`shimchalardan biridir. Alisher Navoiy *-vul* affiksi yordamida shaxs oti yoki urush asboblari otlari ma`nosi ifodalanishini ko`rsatadi: *xirovul*, *qarovul*, *chingdavul*, *yankovul*, *so`zovul*, *patovul*, *kitpovul*, *yasovul*, *bakovul*, *jig`ovul*, *dakavul* kabi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-vul* affiksi bilan so'z yasalishi, jumladan, kasb-hunar nomlarining yasalishi to'xtagan, faqat shu affiks bilan yasalgan *qaravul* so'zi qo'llanmoqda.

-gar affiksi yasash asosida ifodalangan narsa bo'yicha ishlab chiqaruvchi shaxs, kasb egasini bildiruvchi shaxs oti yasaydi. Jarangli undoshdan so'ng *-gar*, jarangsizdan so'ng *-kar*, jarangsiz undosh va unlidan so'zga *-kor* formasida ham bo'ladi. Ba'zan unlidan so'ng ham *-gar* formasida ham bo'ladi. Ba'zan unlidan so'ng ham *-gar* formasida ishlatiladi: *xolvagar*, *sovungar*, *miskar*, *g'allakor*, *sholikor*, *paxtakor*, *lavlagikor* kabi.

-gar affiksi asli tojik tilidagi *kor* (ish) so'zi bilan aloqador bo'lib, ba'zan o'zbek tilidagi *-chi* affiksi anglatgan ma'noga yaqin ma'noni anglatish uchun xizmat qiladi.

Demak, hozirgi o'zbek adabiy tiliga fors-tojik tilidan o'zlashgan quyidagi affikslar vositasida kasb-hunar nomlari yasalishi faol kuzatilasdi: *-kor*, *-gar*, *-soz*, *-do'z* (*do'zi*), *-kash*, *-shunos*, *-bon*, *-furush* kabi.

Hozirgi kunda turli fanlarda o'rganish obyektni tasvirlash uchun modellashtirishdan keng foydalanilmoqda. Model tabiiy fanlar yoki umuman fanda shunday moddiy qurilma, grafik, sxema, umuman, bilish vositasi sifatida tushuniladiki, u muayyan original obyekt haqidagi ma'lumotlar majmui tarzida yuzaga kelgan hosila obyekt demakdir. Boshqacharoq tushuntirganda, model tabiiy obyektlarning imitatsiyasidir (o'xshashi, taqlidiy ko'rinishi), u o'zbek tilidagi qolip, andaza so'zlariga mos keladi. Bunda aniq yoki mavhum obyektlar kichraytirilgan obyektlar, sxemalar, chizmalar, fizikaviy konstruksiyalarda tadqiq etiladi.¹

Tilshunoslikda model nutqiy xosilalarni tug'diruvchi qolip sifatida tasvirlanadi. Masalan, o'zbek tilida morfologik usul asosida so'z yasalishining umumiy modeli: **asos + so'z yasovchi qo'shimcha**; xususiy modellari: *asos + -chi*, *asos + -do'z*, *asos + -furush*, *asos + -shunos* kabi.

¹ Райимов Қ. Ўзбек тилида сўз ясашиши усуллари моделиштириш // Тил ва адабиёт фанини замонавий ўқитиш масалалари: Республика илмий-назарий конференцияси. – Тошкент, 2017. – № 1. – Б. 297-298.

Biz kuzatishlarimiz asosida o`zbek tilida quyidagi kasb-hunar nomlarining yasaliş modellarini ajratdik:

Asos + -chi modelida shu narsa jarayon bilan shug`ullanuvchi shaxs ma`nosidagi kasb-hunar nomlarini yasaydi: *suvchi, sportchi, tilchi, adabiyotchi, sportchi* kabi. Hozirgi kunda ham bu model asosida yangi-yangi so`zlar hosil qilinmoqda: *paynetchi, kompyuterchi* kabi.

Asos + -shunos modelida asosdan anglashilgan narsa, faoliyatni o`rganuvchi shaxs ma`nosidagi kasb-hunar nomlarini yasaydi: *tilshunos, o`lkashunos, adabiyotshunos, tilshunos, o`simlikshunos* kabi. Bu model hozirgi kunda ham unumli.

Asos + -furush modelida asosdan anglashilgan tovarni sotuvchi shaxs ma`noli kasb-hunar nomlarini hosil qiladi: *chitfurush, mevaqfurush, olmaqfurush, gazlamafurush, qaymoqfurush* kabi.

**Asos + -do`z modelida** asosdan anglashilgan narsani tikish bilan shug`ullanuvchi shaxs ma`noli kasb-hunar nomlarini yasashga xizmat qiladi: *etikdo`z, do`ppido`z, gilamdo`z, mo`ynado`z* kabi.

Asos + -kor modelida faqat taom pishiruvchi shaxs ma`noli kasb-hunar nomlarini yasashga xizmat qiladi: *oshpaz, lag`monpaz, mantipaz, kabobpaz, shashlikpaz, somsapaz* kabi.

Dialektal kasb-hunar nomlarining yasaliş xususiyatiga e`tibor qaratsak, ularning yasaliş modeli deyarli bir xil: **asos + yasovchi = yasalma (ot + ot (shaxs oti) yasovchi qo`shimcha)**: *tamg`achi, taqagar, charxkash, nahalchi, na`lchi* kabi.

Dialektal kasb-hunar nomlari ham *-chi, -kash, -gar, -soz* kabi shaxs oti yasovchi affikslari bilan yasalgan. Demak, kasb-hunar nomlari otlarning o`z qatlamiga va o`zlashma qatlamiga mansub lug`aviy birliklar, affikslar vositasida yasalgan. Dialektal kasb-hunar nomlari deyarli bir xil modelda, bir guruhdagi affikslar vositasida yasaladi. Buning natijasida kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so`zlar doirasida variantdorlik, sinonimlik yuzaga kelgan: *zanjirgar // zanjirsoz, dam bosuvchi // damgir // damchi, damgar, charxkash // chaxchi* kabi.

O'zbek tilining taraqqiyoti jarayonida fors-tojik tili birliklari asosida yasalgan ya'ni **fors-tojikcha + o'zbekcha modelida** kasb-hunar nomlari kuzatiladi: *dasturxonchi, podachi, payvandchi, g'ijjakchi, chorvachi* kabi.

Dasturxonchi dasturxon otiga o'zbek tilidagi kasb-hunar ot yasovchi *-chi* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; “*to'y, marakalarda dasturxon tuzash ishlari bilan shug'ullanadigan ayol*” ma'nosini anglatadi va hozirda o'zbek adabiy tilida hamda shevalarda faol qo'llanadi.

Podachi kasb-hunar nomi “*yirik chorva mollarining birga boqiladigan to'dasi*” ma'nosini anglatadigan tojikcha *poda* otidan *-chi* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, “*yirik chorva mollarini keng o'tloqda boqadigan kishi*” ma'nosini anglatadi.

Chorvachi o'zbek tilida tojikcha *chorva* otiga *-chi* qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan; “*chorva boqish bilan shug'ullanadigan kishi*” ma'nosini anglatadi.

Tilimizda **o'zbekcha+forscha modelda** yasalgan kasb-hunar nomlari mavjud: *bug'doykor, yalovbardor, yukkash, mahsido'z, tilshunos* kabi.

Bug'doykor oti “*boshqali g'alla o'simligi*” ma'nosini anglatadigan o'zbekcha *bug'doy* otiga “*shug'ullanuvchi*” ma'nosini ifodalaydigan tojik tilidan o'zlashgan *-kor* qo'shimchasini qo'shib o'zbek tilida hosil qilingan bo'lib, “*bug'doy yetishtiruvchi*” ma'nosini anglatadi.

Yukkash o'zbekcha *yuk* otiga “*tashi, ko'tarib olib bor*” ma'nosini anglatadigan tojikcha *kashidan* fe'lining *-kash* hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, “*yukni biror yerga olib borib beruvchi*” ma'nosini anglatadi. O'zbek shevalarida qo'llanadi.

Mahsido'z o'zbek tilida “*uzun ko'njli, poshnasiz, tag sharmi yumshoq milliy oyoq kiyimi*” ma'nosini anglatadigan mahsi otiga “*tik*” ma'nosini anglatadigan tojikcha *do'xtan* fe'lining *do'z* hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, “*mahsi tikuvchi kosib*” ma'nosini anglatadi.

O'zbek tilida boshqa tillar vositalari asosida **arabcha+fors-tojikcha modelida** yasalgan kasb-hunar nomlari ham faol qo'llanadi: *haykaltarosh, g'allakor, qalamkash, shifokor, sharqshunos, xizmatkor, tadbirkor, tabiatshunos,*

soatsoz, san`atshunos, san`atkor, mirshab, masxaraboz, maktabdor, kirakash, kimyogar, kabobpaz, do`kondor, binokor kabi.

Tarkibi birdan ortiq lug`aviy asosdan iborat kasb-hunar nomlari kompozitsiya usuli bilan yasaladi: *elektromexanik, jilovbardor, yalovbardor, qurolbardor, konsertmeyster, fotomuxbir, fotorepartyor, qo`rg`onbegi, lashkarboshi, ko`zboylog`ich, yuriskonsult, otboqar, yilqiboqar, molboqar, cho`chqaboqar, qo`yboqar, parrandaboqar, buzoqboqar, mingboshi, tumanboshi, ellikboshi* kabi.

A.Hojiyevning “O`zbek tili so`z yasaliishi tizimi” kitobida kompozitsiya ya`ni so`z qo`shish usuli mavjud emas degan fikr ilgari suriladi. Bu usul yordamida hosil qilingan qo`shma so`zlarni u so`zlarni qo`shish yordamida yasalgan emas, balki bunday so`zlarning ko`pchiligi turli hodisa, yo`llar bilan yuzaga kelgan deb e`tirof etadi<sup>1</sup>. Masalan, ularning ba`zilari boshqa tildan shunday o`zlashtirilgan bo`lishi, ba`zilari so`z birikmalarining nutqiy jarayon davomida shunday holga kelib qolganligi, ayrimlari esa okkazional yasaliish (nutqiy hodisa) deb hisoblaydi. Lekin bu fikrni to`laqonli asosga ega deb bo`lmasa ham, unda mantiqiy asos mavjud.

Sintaktik yo`li bilan so`z yasash qo`shma so`zlar yaratish bo`lib, bunda ikki (yoki undan ortiq) so`zning qo`shilishi yangi leksik birlik – leksemani hosil qiladi. So`z yasashning bu tipi ham o`zbek tilidagi faol yo`llardandir.

O`zbek tilidagi kompozitsiya usuli bilan yasalgan kasb-hunar nomlarini morfologik asosi va shakllanish modeliga ko`ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Ot+ot ko`rinishidagi kasb-hunar nomlari: *zootexnik, kinoaktyor, kinoartist, kinomexanik, kinooperator, kinorejissyor, radiotexnik, elektromexanik, jilovbardor, yalovbardor, qurolbardor, konsertmeyster, fotomuxbir, fotorepartyor, qo`rg`onbegi, lashkarboshi, ko`zboylog`ich, yuriskonsultant* kabi.

2. Ot+fe`l ko`rinishidagi kasb-hunar nomlari: *otboqar, yilqiboqar, molboqar, cho`chqaboqar, qo`yboqar, parrandaboqar, buzoqboqar* kabi.

3. Son+ot ko`rinishidagi kasb-hunar nomlari: *o`nboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshi, ellikboshi* kabi.

Bugungi kunga kelib o`zbek tilida kasb-hunar nomlarining sintaktik yo`l bilan yasalishi deyarli kuzatilmaydi.

3.2. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksikografik talqini

Leksikografiya termini grekcha *lexikos* "so`z", *grapho* "chizmoq", "yozmoq" so`zlaridan olingan. Leksikografiya o`rnida hozirda **lug`atshunoslik** termini ham qo`llanmoqda. Leksikografiya lug`at tuzish amaliyoti va nazariyasi bilan shug`ullanuvchi tilshunoslik bo`limidir. Leksikografiya lug`at va uning turlari, lug`at tuzish tamoyillari kabi masalalarni o`rganadi.

Mashhur tilshunos Mahmud Qoshg`ariy ibn Husayn ibn Muhammadning XI asrda yaratilgan "Devonu lug`atit turk" ("Turkiy so`zlar devoni") asari turkiy xalqlarning ilk lug`atidir. Turkiy xalqlar tarixidagi dialektologik, izohli, etnografik, tarixiy-etimologik lug`atlarning barcha unsurlarini qamrab olgan dastlabki universal lug`at.

Kuzatishlarimiz shuni ko`rsatadiki, Mahmud Qoshg`ariyning "Devoni lug`atit turk" asarida 40 ga yaqin kasb-hunar nomlari berilgan: *alim (olim)*, *etukchi (etikdo`z)*, *satg`uch (sotuvchi)*, *sug`arguchi (sug`oruvchi)*, *temurchi (temirchi)*, *qorug`chi (qo`ruqchi)*, *elbashi (otboqar)*, *ajaqchi (kulol)*, *emchi (tabib)*, *etmakchi (novvoy)*, *jatchi (afsunchi)*, *jirag`u (cholg`uvchi, ashulachi)*, *jichi (tikuvchi)*, *jurchi (hunarmand, usta, yo`l ko`rsatuvchi)*, *otachi (tabib)*, *salchi (oshpaz)*, *sart (savdogar)*, *sag`un (tabib)*, *tabug`chi (xizmatkor)*, *terguchi (to`plovchi)* kabi.¹

Mahmud Qoshg`ariyning "Devonu lug`otit turk" asaridagi *alim (olim)*, *etukchi (etikdo`z)*, *satg`uch (sotuvchi)*, *sug`arguchi (sug`oruvchi)*, *temurchi (temirchi)*, *qorug`chi (qo`ruqchi)* kabi kasb-hunar nomlari nafaqat qadimgi turkiy tilda, balki eski va hozirgi o`zbek adabiy tilida ham ayrim fonetik o`zgarishlarga uchragan holda qo`llangan, qolganlari eskirgan so`zlar qatlamidan o`rin olgan.

XII - XIII asrlardan XX asr boshlarigacha amalda bo`lgan eski o`zbek tili hozirgi o`zbek tilining shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo`lgan. Eski o`zbek tilida Alisher Navoiy asarlari, ijodi muhim o`rin tutganligi sababli bu davr uchun "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati" ni asos qilib oldik.

¹ Девону луғотит турк. Индекс-луғат. — Тошкент: Фан, 1967. — 550 б.

“Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”da esa 300 dan ziyod kasb-hunar nomlari kuzatiladi: *adib, ayolg`uchi, alamkash, anjumshunos, atibbo, bazzoz, bakovul, baxshi, baxyasoz, bovurchi, borkash, bog`bon, buzkash, vazir, voiz, gozur//kozur, gulchin, dabir, dalk, dallol, darbon, dehqon, didbon, donarez, doyagar, doranda, jodu, jat, jomabof, zorib, zakotchi, imom, itmakchi, yirov, kaniz, kemachi, lashkar, lahnapardoz, maktabdor, malloh, marzbon, massoh, matbaxiy, misohat, moshita, muboshir, muzdur, mulozim, munshiy, murabbiy, musavvir, muhaddis, muhandis, muhosib, muhrdor, mavokash, mavosoz, mavkar, najjor, nayzachi, naqshband, naqshsoz, naqqosh, novakash, nozir, novvoy, notiq, obposh, oshpaz, ohangar, payk, poykor, sabbog`, sabukash, savdogar, savdopesha, sayyod, sakbon, tabbox, tabib, tahvildor, temirchi, teshavor, ustod, farrosh, xidam, xozin, chokar, cho`pon* kabi.¹

Bulardan *ayolg`uchi, anborkash, anjumshunos, atibbo, attor, afsona-guzor, afsonapardoz, afsonasaroy, axtarshunos, axtachi, bazzoz, bakovul, banno, barbatnavoz, barzagar, boni//boniy, doygar, naqshpayvand, novakash, rozaliq, vazzon, gozur//kozur, gulchin, go`rkan, go`yanda, dabir, darbon, daryogard, daryokash, didbon, diramsanj, doygar, itmakchi* kabi kasb-hunar nomlari eskirgan, *alamkash, diramsanj, zakotchi, jallod, kanizak, kohin, sayrafiy, sarrof, shig`ovul* kabi kasb-hunar nomlari tarixiy so`zlar qatlamidan o`rin olgan.

Eski o`zbek tilida iste`molda bo`lgan *adib, baxshi, me`mor, muhandis, muallim, murabbiy, musavvir, novvoy, oshpaz, raqqos, savdogar, sozanda, suvchi, tabib, temirchi, farrosh, xattot, naqqosh, sangtarosh, bog`bon, voiz, dallol, dehqon* kabi kasb-hunar nomlari hozirgi o`zbek adabiy tilida ham faol qo`llanmoqda.

O`zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o`zlashtirilgan ruscha-internatsional kasb-hunar nomlari ham tilimizda salmoqli o`rin egallaydi.

Olim Usmon, Renat Doniyorov tomonidan tuzilgan “Ruscha-internatsional so`zlar izohli lug`ati”da 440 dan ortiq kasb-hunar nomlariga izoh berilgan: *aviator, avtomatchi, avtor, agronom, advokat, akademik, aktirisa, akusher, arxeolog, arxitektor, astrolog, astronavi, atomshunos, banker, betonchi, bokschi, botanik,*

¹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Фан, 1983. — 1–4-ж.

*bufetchi, vrach, voleybolchi, gazetchi, geofizik, gidrolog, diplomat, zootexnik, injener, inspektor, kassir, kimyogar, kinoaktyor, kinomexanik, klimatolog, komik, konduktor, kur`er, leksikograf, limnolog, magazinchi, mashinashunos, mebelchi, medik, metodist, mikrobiolog, mineralog, montyor, nevrolog, okulist, operator, ofitsant, pedagog, psixolog, sotsiolog, telemexanik, tennischi, satirik, fermer, xirurg, sirkchi kabi.*¹

Tahlillardan ko`rinadiki, o`zbek tili leksikasining kasb-hunar nomlari ma`noviy guruhi til taraqqiyotining bosqichlarida ichki va tashqi lisoniy hamda nolisoniy omillar ta`sirida boyib, takomillashib borgan.

Mustaqillik yillarida o`zbek tili leksikologiyasi, ayniqsa, leksikografiyasi sohasida ham muhim yutuqlarga erishildi. Xususan, lug`atchilik sohasidagi nazariy va amaliy izlanishlar diqqatga sazovordir. Besh jildli “O`zbek tilining izohli lug`ati” va boshqa ko`plab lug`atlarning mustaqillik yillarida yaratilganligi lug`atchilik sohasiga alohida e`tibor qaratilayotganidan, shu sohaga qiziqish ortib borayotganligidan darak beradi.

Besh jildli “O`zbek tilining izohli lug`ati” o`zbek xlqi ijtimoiy-madaniy hayotida, o`zbek tili va tilshunosligi tarixida ulkan hodisa hisoblanadi. Ushbu lug`at, avvalo, respublikamizda mustaqillik yillarida olib borilayotgan til siyosatining, eng asosiysi birinchi prezidentimiz Islom Karimovning respublika hukumatining ziyolilarga, filologiya sohasida faoliyat ko`rsatayotgan olimlarga muttasil g`amxo`rligining ijobiy samarasi sifatida yuzaga chiqdi.

Lug`atning ilmiy qimmati shundaki, u hozirgi o`zbek adabiy tili so`z boyligini o`zida mujassam qilgan, o`zbek tilining dunyodagi eng rivojlangan tillardan biri ekanini namoyish qiluvchi muhim manbadir.²

“O`zbek tilining izohli lug`ati”da 1000 ga yaqin kasb-hunar nomlari kuzatiladi: *avariyachi, aviator, avtomat, agronom, adabiyotchi, advokat, adib, azonchi, akusher, alamdor, aloqachi, altchi, aptekachi, astrolog, astonavt, astronom, atomchi, attor, basketbolchi, bedakor, bekatchi, bokschi, bodafurush,*

¹ Усмонов О., Дониёров Р. Ўзбек тилидаги руссча-интернационал ўзлаштира сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент, 1965. – 580 б.

² Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 11.

botanik, boshqochi, geograf, guldo`z, go`rkov, bufetchi, vrach, dehqon, diplomat, duradgor, dutorboz, ishchi, yilqichi, yilqiboqar, kalitbon, kitobdor, komik, kompozitor, kinoshunos, kimyogar, magazinchi, kulol, kucher, molboqar, muallim, telemexanik, tumanboshi, tujjor, tunukachi, xaker, xazinador, xamsanavis, xatib, chindovul, shoir, shishasoz, emchi, elakchi, o`nboshi, etikchi, yalovdor, o`lkashunos, yuzboshi, qadimshunos, qassob, qozonchi, qulufurush kabi.¹

O`zbek tilining izohli lug`atidagi *allof, attor, afandi, bozirgon, bozorgon, vofurush darbon, timbon, azayimxon, alamdor, bojgir, bo`nakchi, darvozabegi, zakotchi, muhrdor, muhtasib, najjor, oftobachi, rixtgar, tarixnavis, navkar, xudaychi, g`o`zafurush, qo`rg`onbegi, qo`shbegi, qushbegi, qutidor, qulfurush, qozi, yuzboshi, erovul, ekinchi, chorakor, xattot, farmonachi, tumanboshi, jevachi, jilovbardor, jig`ador* kabi kasb-hunar nomlari bugungi kunga kelib eskirgan so`zlar qatlamidan o`rin olgan.

“O`zbek tilining izohli lug`atida” 1000 ga yaqin kasb-hunar nomlaridan 680 tasi monosemantik so`z hisoblanadi. Masalan, *altchi, agronom, aravasoz, astronom, arfachi, arxivchi, bazzoz, bedakor, boksyor, botanik, zootexnik, mevafurush, tujjor, tunukachi, fotograf, folbin, xamsanavis, xazinador* kabi.

Baqqol – mayda-chuyda ro`zg`or mollari va oziq-ovqatlar sotuvchi mayda savdogar.²

Lug`atda kasb-hunar nomlarining asl ma`nosidan tashqari boshqa ma`nolari ham qayd qilingan:

Shoir 1. She`riy asarlar yozadigan kishi.

2. Baxshi yoki oqinlar ismiga hurmat yuzasidan qo`shib aytiladigan so`z.

3. s.t. gapdon, so`zamol, hozirjavob odam haqida.

Mexanik 1. Mexanika mutaxassisi.

2. Mashinalarni nazorat qiluvchi va ishga soluvchi lavozimli kishi, mutaxassis.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I – 680 б.; II – 672 б.; III – 688 б.; – Тошкент, 2008. IV – 608 б.; V – 592 б.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. -Б. 189.

Lugʻatda soʻz maʼnolarini izohlashda ayrim oʻrinlarda umumiy izoh bilan cheklanilgan. Chunonchi, *Allof* – esk. Un, bugʻdoy savdosi bilan shugʻullanuvchi savdogar.¹

Ayoqchi – sharob quyuvchi, kosagul.²

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da *allof*, *ayoqchi* kasb-hunar nomlariga qisqa, umumiy tarzda izohlangan boʻlsa, “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” da esa koʻp maʼnoli soʻz sifatida quyidagicha izohlangan:

Allof – 1) giyohfurush, oʻtin-choʻp, sotish bilan shugʻullanuvchi kishi;

2) bozorda gʻalla, non, un sotuvchi.³

Ayoqchi – 1) oʻtmishda (11-14-asrlar) biror mansabdor shaxs tomonidan uyushtirilgan tantana, ziyofat yoki qabul chogʻida mehmonlarga turli sharob may quyuvchi, kosagul, soqiy. Eski oʻzbek tili yodgorliklarida keng qoʻllangan;

2) Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk” asarida keltirilishicha, *ayoqchi kulol* maʼnosida ham qoʻllangan.⁴

Jamiyat rivoji, obyektiv borliq va tabiatdagi oʻzgarishlar, ular haqida kishilar tasavvuri va tushunchasining boyishi, insoniyat ilmiy, maʼnaviy va madaniy tafakkurining kamol topa borishi natijasida yangi soʻz, yangi termin va iboralar bilan boyib boradi. Bu, albatta, tilning boshqa lugʻaviy birliklari qatori kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lugʻaviy birliklarga ham xos. Buni kasb-hunar nomlarini ifodalovchi soʻzlarning lingvostatistik tahlilida ham kuzatamiz.

Qadimgi turkiy til yaʼni “Devonu lugʻotit turk” da 40 dan ortiq, “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati” da 300 dan ziyod, “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da 1000 dan ortiq kasb-hunar nomlari mavjud.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi oʻzgarishlar, islohotlar va yangilanishlar taʼsirida oʻzbek tilining lugʻaviy tarkibidagi boshqa maʼnaviy guruhlar kabi kasb-hunar nomlari ham yangi lugʻaviy

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. -Б. 72.

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2006. – 1-ж. – Б. 43.

³ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2000. – 1-ж. – Б. 231.

⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2000. – 1-ж. – Б. 138.

birliklar bilan boyidi. So`nggi yillarda tilimizga kirib kelgan *broker, makler, biznesmen, diler, paynetchi, menejer, investor* kabi kasb nomlari fikrimiz dalilidir.

Broker so`zi ingliz tilidan olingan bo`lib, hozirgi o`zbek adabiy tilida *fond, tovar, valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlari tuzishda vositachilik (dallollik)* qiladigan *ayrim shaxs yoki firma* ma`nosida ishlatiladi. Brokerlar mijoz topshirig`iga ko`ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o`z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin. Vositachilik qilgani uchun tomonlarning kelishuviga ko`ra, birja qo`mitasi joriy etgan taksa (qat`iy baho) ga muvofiq, oldi-sotdining muayyan foiz miqdorida haq oladi.

Makler nemischa so`z bo`lib, *vositachi, dallol* degan ma`noni anglatadi. Hozirgi o`zbek tilida *fond, tovar va valyuta birjalarida tuziladigan kelishuvlarda dallol; pulli vositachilik xizmatlarini amalga oshiruvchi* ishbilarmon.

Diler inglizcha so`z bo`lib, *birja dalloli* degan lug`aviy ma`noni anglatadi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *diler* so`zi quyidagi ma`nolarda ishlatiladi:

1. *Tovarlar (mahsulot) oldi-sotdisi bilan shug`ullanuvchi, o`z nomidan va o`z mablag`i hisobidan harakat qiluvchi jismoniy shaxs.*

2. *Qimmatbaho qog`ozlar, valyutalar, qimmatbaho metallar oldi-sotdisi bilan shug`ullanuvchi, o`z nomidan va o`z mablag`i hisobidan harakat qiluvchi fond birjasi a`zosi, jismoniy yoki yuridik shaxs.*

Menejer kasb-hunar nomi inglizcha *manger – boshqaruvchi* so`zidan olingan bo`lib, korxona va kompaniya egalari bo`lmagan, maxsus tayyorgarlik ko`rgan malakali yollanma boshqaruvchi shaxsga nisbatan ishlatiladi.

Investor so`zi inglizcha *investor*, lotincha *investire – kiyintirmoq* so`zidan olingan bo`lib, investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi shaxsga nisbatan tilimizda faol qo`llanmoqda.

Paynetchi – uyali aloqa uchun pul o`tkazish ishini amalga oshiruvchi shaxsni bildiruvchi kasb-hunar nomi.

*Dehqon, olim, qo`ruqchi, oshpaz, tabib, savdogar, sotuvchi, temirchi, qassob, novvoy, etikdo`z, cholg`uvchi, tikuvchi* kabi kasb-hunar nomlari asrlar davomida qadimgi turkiy tildan to hozirgi kunga qadar faol qo`llanmoqda.

Kelgusida kasb-hunar nomlarining izohli, etimologik lug'atlarini yaratish maqsadga muvofiq.

O'zbek tili lug'at tarkibi boy va jozibador. O'zbek tili sheva va lahjalari tarkibida kasb-hunar nomlari ham salmoqli o'rin egallaydi. Shuningdek, adabiy tildagi kasb-hunar nomlarining aksariyati sheva va lahjalarda leksik variantlariga, sinonimlariga ega. Masalan, Farg'ona vodiysi shevalarida binolarni oqlovchi usta *bulutchi* (G'arbiy Farg'ona), *bulutchi* // *oxlovchi* (Janubiy Farg'ona) deb ataladi. A.Ishayev ko'rsatishicha, *bulutchi* so'zi ruscha *белить* – *oqlamoq* so'zidan yasalgan.¹

O'zbekistonning shaharlari, ayrim qishloqlari ma'lum kasb-hunar sohasiga ixtisoslashgani bilan xarakterlanadi. Shu sababli ma'lum dialekt va lahjalarda muayyan kasb-hunar leksikasi faol qo'llanadi. Jumladan, Farg'ona vodiysi shevalarida degrezlik, metallsozlik, pichoqchilik, zargarlik, do'pido'zlik leksikasi alohida va salmoqli o'rin tutadi. Farg'ona vodiysi shevalarining kasb-hunar leksikasi doirasida kasb-hunar nomlari Sobirjon Ibrohimov tomonidan to'plangan va leksikografik izohlar berilgan.² Biz ana shu manbaga asoslangan holda ayrim dialektal kasb-hunar nomlarining leksikografik, leksik-semantik, yasalish xususiyatlari haqida fikr yurutmoqchimiz.

Farg'ona vodiysi shevalariga mansub dialektal kasb-hunar nomlarini sohaviy mansubligiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin:

1) degrezlikka oid kasb-hunar nomlari: *borkash* (cho'yan eritish chog'i-da quyuvchilarga eritilgan cho'yanni tashib berib turuvchi degrez usta), *damgar* (damni bosib turuvchi ishchi), *charxkash* (charxni aylantiruvchi ishchi), *cho'yangar* (cho'yan eritib, qozon quyuvchi usta, degrez), *quyuvchi* (erigan metallni maxsus qoliplarga quyib buyum ishlab turuvchi usta) kabi;

2) metallsozlikka oid kasb-hunar nomlari: *anjomsoz* (anjom yasovchi usta), *bozg'onchi* // *bosqonchi* (temirchilik va pichoqchilikda metallni bozg'on bilan urib cho'zuvchi, yalpoqlovchi), *buxtovkachi* (to'ponchi), *chaxchi* (kumush-

¹ Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 104.

² Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1959. – II-III т. – 456 б.

dan oltinni misdan kumushni ajratib oluvchi), *dam bosuvchi* // *damgir* // *damchi*, *damgar* (damni bosib, o'tga havo yuboruvchi ishchi), *danavachcha* (anjomsozlikda jagan quyushqon, suvluqqa o'rnatiladigan metall qismlarning yuziga alamni qo'yib, bolg'a bilan urib, tish chiqaruvchi ishchi), *yog'lovchi* (temirchilikda ketmonga yog' surtuvchi ishchi), *zanjirgar* // *zanjirsoz* (zanjir yasovchi usta), *yignasoz* (yigna yasovchi usta), *yignachi* (1) yigna yasovchi usta; 2) yigna sotuvchi), *kesuvchi* (metallni kesadigan odam), *ketmonchi* (ketmon yasovchi usta), *korgar* (anjomsozlikda jagan, quyushqon, o'mildirikning metall detallarini egovlab beruvchi ishchi), *tamg'achi* (tamg'a bosuvchi ishchi), *taqagar* (taqa yasovchi usta), *teruvgar* (teruvchi), *teshuvchi* (metallni teshadigan odam), *tish bosuvchi* (omoch tishining qolipini tayyorlovchi shaxs), *xomlovchi* (omoch tishi va boshqa narsalar qolipini charxga quyib ishlov beruvchi eritma quyish uchun tayyorlovchi kishi), *tobgar* (metallni o'choqda qizdirib, tob berib ishlovchi usta), *uchyotchi* (metallsoz artellarda ishlovchilarning kundalik mehnatlarini hisobga olib boruvchi xodim, tabelchi), *charxkash* (kesadigan asboblarni charxlashda charxni tortib, aylantirib beruvchi usta), *chilangar* (chilangarlik kasbi bilan shug'ullanuvchi usta), *shtampachi* (mashinada ketmonning bo'g'iz, chuvuq va zo'g'asini qaytarish, zo'g'ta) kabi;

3) zargarlikka oid oid kasb-hunar nomlari: *miyongar* (zargarlikda bezak ashyolari yuziga miyno beruvchi usta), *mo'hrchi* (mo'hr o'yuvchi, mo'rkkor), *nahalchi* // *na'lchi* (1) na'l tayyorlovchi usta; 2) oyoq kiyimlariga na'l qoquvchi usta), *sovotgar* (zargarlikda kumush buyumlarga sovot bilan qora tusda gul beruvchi zargar) kabi.

Keltirilgan kasb-hunar nomlarining leksik-semantik xususiyatlaridan anglashiladiki, bunday nomlarning ayrimlari umumiy, integral semalarga ega, xususan, *degrez*, *temirchi*, *zargar* kabi kasb-hunar nomlari tor va keng ma'nolarga ega. Bu so'zlar bir kasb-hunar nomini hamda yuqorida keltirilganidek, shu hunar bilan bog'liq o'nlab kasb-hunar nomlarining umumiy nomini anglatadi. Shuningdek, ayrim kasb-hunar nomlari ko'pma'nolilik xususiyatiga ega. Masalan, *yignachi*

so`zi *yigna yasovchi usta* va *yigna sotuvchi, nahalchi* // *na`lchi* so`zi *na`l tayyorlovchi* va *oyoq kiyimlariga na`l qoquvchi usta* ma`nolarini anglatadi.

Yuqorida keltirilga dialektal kasb-hunar nomlarining aksariyati hozirgi o`zbek adabiy tilida nafaol leksikaga mansub bo`lib, tarixiy va eskirgan so`zlar guruhiga kiradi. Ularning ba`zilarigina, jumladan, *bosqonchi, degrez, ignasoz, chilangar, chaxchi, taqachi* kabilargina izohli lug`atga kiritilgan xolos.

Ba`zi dialektal kasb-hunar nomlari ko`pma`nolilik xususiyatiga ega. Masalan, *nahalchi, na`lchi* kasb-hunar nomi: *na`l tayyorlovchi; oyoq kiyimlariga na`l qoquvchi usta, yignachi* kasb-hunar nomi: *yigna yasovchi usta; yigna sotuvchi* ma`nolarini anglatgan.

Kelgusida kasb-hunar leksikasini, xususan, kasb-hunar nomlarini areal hamda adabiy va dialektal jihatdan qiyosiy o`rganish, izohli lug`atlarini yaratish tilshunoslikdagi muhim vazifalardan biridir.

3.3. O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining nomlanish xususiyatlari

Inson borliqdagi narsa va hodisalarni ongli ravishda kuzatar ekan, ularga xos bo`lgan umumiy hamda xususiy belgi-xususiyatlarni sezadi, shu tariqa cheksiz olam, undagi mavjud narsalar, yuz beradigan hodisalar haqida turli tushuncha va tasavvurlarga ega bo`ladi. Bu tilda, ularga berilgan nomlarda, yaqqol ifodalanadi.

Nomlash shunchaki o`zicha yuz beradigan (stixiyali) hodisa bo`lmasdan, o`ziga xos murakkab lisoniy va nolisoniy qonuniyatlarga, ehtiyoj va talablarga javob berishi lozim bo`lgan jarayondir.

Nomlar uzoq tarixiy takomil mahsulidir. Nomlarda insonlarning ko`p yillik hayotiy kuzatishlari, ko`nikma va malakalari, tajribasi, predmetga, voqea-hodisaga – nomlanuvchiga bo`lgan turli munosabatlari aks etadi. Zero, A.V.Superanskay aytganidek, “...biror predmet yoki hodisa nomining paydo bo`lishini inson tajribasisiz tasavvur qilish mumkin emas...”¹

Inson narsa va hodisalarni nomlar ekan, avvalo, umumlashtirish doirasida ish ko`radi, bunda obyektga xos umumiy bo`lgan belgi-xususiyatlarga asoslanadi. Shuningdek, nomlarda umumlashtirish, ya`ni abstraktsiya (turdosh otlarda) qanchalik zarur bo`lsa, narsa va hodisalarni alohidalab, aniqlab, shunga ko`ra yakkalab ko`rsatish va atash ham shunchalik muhimdir. Demak, yakka va aniq predmet, hodisalarning nomlari – atoqli otlar majmui ham tilda muhim hayotiy zaruriyat va ehtiyoj tufayli tug`ilgan<sup>2</sup>. Atoqli otlarning asosiy ko`rinishlaridan biri bo`lgan kasb-hunar nomlarining lisoniy shakllanishida ham buni yaqqol kuzatish mumkin.

O`zbek tilidagi kasb-hunar nomlarini nomlanish xususiyatlariga ko`ra quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

¹ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – С. 236.

² Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 16

**1. Ishlab chiqargan materialiga ko`ra nomlangan kasb-hunar nomlari:** *pichoqchi, pichoqsoz, aravaso, bo`zchi, kabelsoz, yog`ochsoz, kafshdo`z, charxchi, egarchi, taqachi, chelakchi, elakchi, qayiqsoz, qurolsoz, g`alvirchi, novvoy // nonpaz, teshachi, savatchi, mahsido`z, konditer, tandirchi, bo`zchi* kabi.

Pichoqchi kasb-hunar nomi pichoq yasovchi ustaga nisbatan qo`llanilib, ishlab chiqqargan mahsulotiga ya`ni pichoqqa nisbatlash orqali yuzaga kelgan.

Tandirchi kasb-hunar nomi tandir yasovchi ustaga nisbatan qo`llanib, tandirga nisbatlash orqali yuzaga kelgan.

2. Bajaradigan mashg`ulotiga ko`ra nomlangan kasb-hunar nomlari: *suvoqchi, quruvchi, arrakash, binokor, bichiqchi, bo`yoqchi, dazmolchi, massajchi, tahrirchi, tikuvchi, to`quvchi, xamirgir, xatkash, chegachi, cholg`uvchi, chopiqchi, shuvoqchi, o`toqchi, ovchi, rasmchi* kabi.

Suvoqchi kasb-hunar nomi suvoq qiluvchi ustaga nisbatan bajaradigan mashg`ulotiga nisbatlash orqali yuzaga kelgan.

Dazmolchi kasb-hunar nomi kiyim-kechaklarni dazmollovchi shaxsga nisbatan nomlangan.

3. Chaladigan asbobiga ko`ra nomlangan kasb-hunar nomlari: *altchi, arfachi, barabanchi, baynachi, changchi, chirmandakash, naychi, tanburchi, surnaychi, organist, pianinochi* kabi.

Arfachi kasb-hunar nomi esa arfa cholg`u asbobiga nisbatan nomlangan.

Tanburchi so`zi tanbur chaluvchi sozandaga nisbatan qo`llanib, tanburga nisbatlash asosida yuzaga kelgan.

**4. Sotadigan mahsulotiga ko`ra nomlangan kasb-hunar nomlari:** *baliqfurush, biletchi, bodafurush, bodroqchi, bo`yrafurush, vofurush, gazlama-furush, gilamfurush, donfurush, jiyakfurush, lattafurush, mevafurush, terifurush, charmfurush, chinnifurush, chitfurush, choyfurush, shoyifurush, eskichi, hasipfurush, sabzifurush* kabi.

Baliqfurush – xom yoki qovurilgan baliqni sotish bilan shugʻullanuvchi shaxsga nisbatan qoʻllanadi. Bu kasb nomi sotadigan mahsuloti baliqqa nisbat berish asosida yuaga kelgan.

5. Yetishtiradigan mahsulotiga koʻra nomlangan kasb-hunar nomlari: *boshoqchi, bedakor, zigʻirkor, kartoshkakor, tolachi, choykor, sholikor, ekinchi, sabzavotchi* kabi.

Zigʻirkor kasb-hunar nomi yetishtiradigan mahsulotiga yaʼni zigʻirga nisbat berish asosida yuzaga kelgan.

Sholikor kasb-hunar nomi yetishtiradigan mahsulotiga yaʼni sholiga nisbat berish asosida yuzaga kelgan.

6. Shugʻullanadigan mashgʻuloti (sport turi)ga koʻra nomlangan kasb-hunar nomlari: *basketbolchi, boksyor, bokschi, voleybolchi, kurashchi, tennischi, shaxmatchi* kabi.

Bokschi soʻzi sportning boks turi bilan shugʻullanuvchi shaxsga nisbatan qoʻllanadi. Bu kasb-hunar nomi boksga nisbatlash asosida yuzaga kelgan.

Tennischi kasb-hunar nomi shugʻullanadigan sport turi yaʼni tennisga nisbat berish asosida yuzaga kelgan.

7. Ixtisoslashgan mutaxassisligiga koʻra nomlangan kasb-hunar nomlari: *botanik, adabiyotchi, baleneolog, biolog, dialektolog, tilshunos, topograf, turkolog, tuproqshunos, ufolog, farmakolog, fiziolog, filolog, fotograf, endokrinolog, energetik, narkolog* kabi.

Biolog kasb-hunar nomi biologiyaga nisbat berish asosida yuzaga kelgan boʻlib, biologiya fani mutaxassisini ifodalaydi.

Adabiyotchi kasb-hunar nomi adabiyot faniga nisbat berish asosida yuzaga kelgan boʻlib, adabiyot fani mutaxassisini ifodalaydi.

8. Pishiradigan taomiga koʻra nomlangan kasb-hunar nomlari: *somsapaz, oshpaz, mantipaz, shiravorchi, qandolatchi, holvagar, holvapaz, shakarpaz, kallapaz, kabobpaz* kabi.

Somsapaz kasb-hunar nomi somsaga nisbatlash asosida yuaga kelgan boʻlib, somsa pishirib sotuvchi shaxsga nisbatan qoʻllanadi.

Mantipaz kasb-hunar nomi mantiga nisbatlash asosida yuaga kelgan bo`lib, manti pishirib sotuvchi shaxsga nisbatan qo`llanadi.

9. Ishlaydigan korxona muassasi, ish joyiga ko`ra nomlangan kasb-hunar nomlari: *bankir, aptekachi, zapravkachi, kutubxonachi, matbuotchi, tegirmonchi, choyxonachi, shaxtachi, shaxtyor, qovoqxonachi, nashriyotchi, restoranchi* kabi.

Bankir kasb-hunar nomi shaxsni ishlaydigan korxona, muassasiga ya`ni bankka nisbat berish asosida yuzaga kelgan.

Kutubxonachi kasb-hunar nomi shaxsni ishlaydigan korxona, muassasiga ya`ni kutubxonaga nisbat berish asosida yuzaga kelgan.

Kasb-hunar nomlarining ifodalovchi oddiy lug`aviy birliklar til taraqqiyoti jarayonida onomastik konversiya usulida kishi nomlariga – antroponimlar va joy nomlari – toponimlarga ham o`tgan, ya`ni ma`lum kasb-hunar tushunchasini ifodalashdan alohida shaxslarni atashga xoslangan. Bunday xususiyat faqat o`zbek tilidagina emas, barcha turkiy tillarda kuzatiladi.

E. Begmatov o`zbek tilidagi antroponimlarning lug`aviy asoslari tahlilida kasb-hunar nomlari asosida shakllangan kishi ismlarini alohida guruh sifatida qayd etadi.¹

Kasb-hunar nomlari lug`aviy asos qilib olingan antroponimlar guruhi kishilarning oilaviy holda o`z bobo va buvilari, o`tmish avlodlari, qarindoshlari mashg`ul bo`lgan ma`lum kasb yoki hunarni qadrlashi, e`zozlashi, yangi tug`ilgan farzandni kelgusida oilaviy an`analarni davom ettirib, shunday kasb-hunar egasi bo`lishini niyat, tilak qilish yoki biror kasb-hunar egasiga havas qilish kabi ijtimoiy omillar, etnografik odatlar asosida yuzaga kelgan. *Podabon, Mirshab, Kosiba, Suvchiboy, Yilqichi, Qovunchi, Cho`liq, Chilangar, O`qchi, Ipakchi* kabi.

O`zbek tili antroponimiyasidagi ismlar guruhini tarixiylik nuqtai nazaridan tahlil qilganda bir qator ismlarga tarixiy kasb-hunar, mashg`ulot nomlari lug`aviy asosi bo`lganligi kuzatiladi: *Attor, Bazzoz, Jilovdor, Soqiy, Sayyod, Sangin,*

¹ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимики. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 111.

Mudarris, Navkar, Ipakchi, Mirzo // Mirza, Munajjim, Najjor, Najjora, Noib, Otchopar, Sarkor, Sardor, Sarrof, To`pchi, Shahsuvor, Chavandoz, G`avvos kabi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida ham bir qancha kasb-hunar nomlari lug`aviy asosi bo`lgan ismlar kuzatiladi: *Adib, Adiba, Bog`bon, Dehqonboy, Duradgor, Zargar, Raqqosa, Rassom, Rahbar, Muallima, Murabbiy, Kotiba, Ovchiboy, Sayyoh, Qo`yboqar, Shoir, Shoir, Hofiz, Hofiza* kabi. Ayniqsa, hozirda *Adib, Adiba, Shoir, Shoir, Kotiba* kabi ismlar faol qo`llanadi, ko`p kuzatiladi.

Kasb-hunar nomlari lug`aviy asos qilib olingan o`g`il bolalar ismi onomastik konversiya asosida, ya`ni kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalarni to`g`ri-dan-to`g`ri hech qanday grammatik vositalarsiz antroponimlarga o`tgan: *Adib, Shoir, Kotib, Sayyod, Najjora, Hofiz* kabi.

Kasb-hunar nomlari lug`aviy asos qilib olingan qizlar ismini ifodalovchi antroponimlar kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalardan *-a* affiksi vositasida hosil qilinadi: *adib > Adiba, shoir > Shoir, kotib > Kotiba, sayyod > Sayyoda, najjor > Najjora* kabi.

Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lug`aviy birliklar antroponimlar guruhiga, ya`ni oddiy so`zdan atoqli otlar sirasiga o`tar ekan, ularning morfemik tarkibida ham o`zgarishlar yuz beradi. Bunday so`zlarning aksariyat qismi hech qanday o`zgarishlarsiz kishi ismiga o`tsa-da, ba`zilari *-xon, -boy, -bek, -bonu, -begim* kabi antroformantlarni oladi va antroponimga o`tadi hamda amaliyotda shunday shaklda qo`llanadi: *Shoiraxon, Shoirabonu, Adibaxon, Adibabegim, Cho`ponboy, Bog`bek, Bog`boy, Qo`ychiboy* kabi. Shuningdek, bunday ismlar guruhi doirasida variantdorlik ham kuzatiladi: *Musavvara // Musavvira* kabi.

Kasb-hunar nomlari lug`aviy asos bo`lgan antroponimlarning salmoqli qismi morfemik tarkibiga ko`ra sodda tuzilmalidir.

Yurtboshimiz I.A. Karimovning “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarida o`tmish davrlar darakchisi bo`lmish xalqona toponimlarning ahamiyatiga alohida diqqat qilingan, bu xususda muhim fikrlar bayon etilgan. Muhtaram Prezidentimiz yozganlaridek, “Ajdodlarimiz o`zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog`-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e`tibor bergan...

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi Pichoqchilik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof singari mahalla nomlari bu yerda hunarmandchilik naqadar rivojlanganligidan, xalqimizning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganligidan dalolat beradi".¹

O'zbek tilida qishloq, shaharcha, shaharlarni nomlashda ko'pincha mahalliy aholining kasb-kori, mashg'uloti, hunarmandchiligi ham asosga olinadi, bunda ham kasb-hunar nomlari lug'aviy asos vazifasini bajaradi.

Qadimdan hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari ko'proq mahalla va ko'chalarga berilgan. O'zbekiston oykonimiyasida bunday nomlar salmoqli o'rin tutadi. Namangan viloyatida ham *Ko'zagarlik* (Nam. sh.), *Chitgar* (Koson. t.), *Sohibkor* (Nor. t. Chor. t.), *Etikdo'z*, *Do'zanda* (Chust t.) kabi bir necha shunday oykonimlar mavjud.

Tahlillardan anglashiladiki, o'zbek xalqida qadimdan kasb-hunarga e'tibor kuchli. Yuqorida keltirilgan nomlar ham ana shu e'tibor va hurmat hamda an'analar mahsulidir.

¹ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 92.

Bob bo'yicha xulosalar

1. O'zbek tilida kasb-hunar nomlarini ifodalovchi yangi so'zlar yasashda morfologik usul keng qo'llanadi. O'zbek tilshunosligi taraqqiyotida kasb-hunar nomlarini yasovchi affikslarning o'rni va ahamiyati beqiyos. O'zbek tilida hozirgi kunda 170 dan ortig' so'z yasovchi qo'shimcha mavjud bo'lib, ulardan 15 dan ortig'i kasb-hunar nomlari yasashda qo'llanadi.

2. *-chi* kasb-hunar nomlarini yasovchi eng sermahsul affiks hisoblanadi. Xususan, o'zbek tilida 1000 yaqin kasb-hunar nomi bo'lsa, 300 ga yaqin kasb-hunar nomlari shu qo'shimcha yordamida yasalgan: *tarixchi, bo'zchi, bo'yoqchi, xizmatchi, dengizchi, bokschi, musiqachi, baliqchi, lug'atchi, meshkobchi, cholg'uvchi, musiqachi, etikchi, o'roqchi, g'aznachi, qo'shiqchi, arqonchi, to'quvchi, quyuvchi, uchuvchi, yigiruvchi* kabi.

3. Jamiyat rivoji, obyektiv borliq va tabiatdagi o'zgarishlar, ular haqida kishilar tasavvuri va tushunchasining boyishi, insoniyat ilmiy, ma'naviy va madaniy tafakkurining kamol topa borishi natijasida yangi so'z, yangi termin va iboralar bilan boyib boradi. Bu, albatta, tilning boshqa lug'aviy birliklari qatori kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lug'aviy birliklarga ham xos. Buni kasb-hunar nomlarini ifodalovchi so'zlarning lingvostatistik tahlilida ham kuzatamiz.

Qadimgi turkiy til ya'ni "Devonu lug'otit turk" da 40 dan ortiq, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati" da 300 dan ziyod, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 1000 dan ortiq kasb-hunar nomlari mavjud.

Umumiy xulosalar

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilining lahja va shevalari lug'at tarkibida kasb-hunar nomlari mavzuiy guruhi salmoqli o'rin tutadi. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lug'viy birliklar mavzuiy guruhi o'zbek xalqining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq tarzda til taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'lib, eskirish, yangilanish hamda shakliy va ma'noviy jihatdan sayqallanish asosida taraqqiy etib borgan. Tilimizning qadimgi turkiy adabiy til, eski turkiy adabiy til va eski o'zbek adabiy tili tarixiy bosqichlariga qaraganda hozirgi o'zbek adabiy tilida kasb-hunar nomlarini ifodalovchi leksemalarning miqdoran ko'pligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

2. O'zbek tilidagi kasb-hunar nomlariga doir materiallar tahlilidan ko'rinadiki, turkiy tillarning ilk taraqqiyot bosqichlarida til sofliги tamoyili yetakchilik qilgan, tilning barcha sathlarida, jumladan, lug'aviy va so'z yasash sathida ham asosan ichki manba hamda vositalar asosida ish ko'rilgan. Kasb-hunar nomlarining salmoqli qismi tilning ichki manba va vositalari asosida yasalgan, ularning bir qismi asrlar osha avlodlardan avlodlarga o'tib tilda yashab kelmoqda.

3. O'zbek tili tarixiy taraqqiyoti davomida kasb-hunar nomlari mikro-maydonida ma'no torayishi, ma'no kengayishi, ma'no o'zgarishi kabi semantik o'zgarishlar ro'y bergan va shu asosida shaxs mikromaydonining kasb-hunar nomlari mavzuiy guruhi sayqallanib, me'yorlashib borgan.

4. O'zbek tilining kasb-hunar nomlari semantik guruhi til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida fors-tojik, arab, rus tili va u vositasida boshqa xorijiy tillar vositasida taraqqiy etgan, ayrim turkiy kasb-hunar nomlari o'zlashmalar bilan almashgan, eskirgan lug'aviy qatlamga o'tgan.

5. O'zbek tilida qishloq, shaharcha va shahar kabi aholi manzillarini nomlashda ko'pincha mahalliy aholining kasb-kori, mashg'uloti, hunarmandchiligi ham asosga olinadi. Bunda kasb-hunar nomlari lug'aviy asos vazifasini bajaradi. Natijada o'zbek tilida hozirga qadar davr o'zgarishlariga tob berib, yashab kelayot-

gan kasb-hunar nomlari asosida shakllangan oykonimlar, polisonimlar yuzaga kelgan.

6. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lugʻaviy birliklarning dialektal variantlarini toʻplash, adabiy til variantlari bilan qiyosiy lugʻatlarini yaratish lozim.

7. Xalq hunarmandchiligiga mansub kasb-hunar nomlarini ifodalovchi soʻzlarni toʻplash, izohli lugʻatlar soʻzligiga kiritish va “Oʻzbek tili hunarmandchiligi kasb-hunar nomlari izohli lugʻati” nomli lugʻat yaratish muhim vazifalardan biridir.

8. Kasb-hunar nomlarini ifodalovchi tarixiy-etimologik jihatdan oʻz va oʻzlashma qatlamga mansub lugʻaviy birliklar majmui shaxs nomlari makro maydonida alohida kasb-hunar nomlari semantik mikromaydonini tashkil etadi. Oʻzbek tilining kasb-hunar nomlari semantik maydoni qoʻllanish darajasiga koʻra faol va nafaol, tarixiy-etimologik manbasiga koʻra oʻz va oʻzlashma qatlamga mansub, zamonaviyligiga koʻra tarixiy, arxaik va zamonaviy lugʻaviy birliklar kabi guruhlarga boʻlinadi.

9. Oʻzbek tilining kasb-hunar nomlari semantik mikromaydoni oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, ingliz tiliga eʼtiborning kuchayishi kabi lisoniy va mamlakatimizda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy oʻzgarishlar, yaʼni nolisoniy omillar asosida boyib bormoqda.

10. Oʻzbek tilida kasb-hunar nomlarini ifodalovchi yangi soʻzlar yasashda morfologik usul keng qoʻllanadi. Ayniqsa, til taraqqiyotining barcha bosqichlarida *-chi* affiksi bilan yasaliş faol boʻlib, hozirda ham bunday yasaliş davom etmoqda. Bu tilda maʼlum qoʻshimchalarning lisoniy xoslanganligi hamda ayrim mavzuiy guruhga mansub soʻzlar yasashda muayyan yasaliş modellarining amal qilishi mahsulidir.

11. Oʻzbek tilida yangi-yangi kasb-hunar nomlarining yasaliş, boshqa bir necha xorijiy tillardan aynan bir kasb nomini ifodalovchi soʻzlarning oʻzlash-tirilishi natijasida kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lugʻaviy birliklar sinonimiyasi boy, salmoqdor.

12. O`zbek tilining kasb-hunar nomlarini ifodalovchi lug`aviy birliklar uslubiy xoslanganligiga ko`ra ham tasniflanadi va farqlanadi. Bu albatta, o`zbek tilining taraqqiyoti va uslubiy-xossaviy takomili natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И. А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давоми – тараққиётимизнинг муҳим омилидир // Ишонч, 2010, 8 декабрь.
2. Каримов И. А. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқоролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 56 б.
3. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 173 б.
4. Каримов И.А. Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади // Халқ сўзи, 2011, 22 январь.
5. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
6. Тарихдан сабоқ олиб, замон билан ҳамқадам бўлиб яшаш – бугунги ҳаётнинг ўткир талаби. Президент Ислом Каримов интервьюсидан келиб чиқадиган хулосалар // Халқ сўзи, 2012, 15 май.
7. Президент Ислом Каримовнинг “Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизацияуа ривождаги роли ва аҳамияти” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2014. 16. 05. – Б. 1-2.
8. Алиев А., Содиқов Қ. Ўзбек адабий тили тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 118 б.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. –1-4-ж.
10. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн // Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. – Тошкент: Фан, 2000. – 16-т. – 336 б.
11. Бакаева Х. Терминология золотого шития Бухары и Гиждувана: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент. 1971. – 24 с.

12. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 260 б.
13. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
14. Бектемиров Ҳ., Бегматов Э. Мустақиллик даври атамалари. – Тошкент: Фан, 2002. – 48 б.
15. Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка. Аффиксация. Часть I. АДД. – Тошкент, 1955.
16. Девону луғотит турк. Индекс-луғат. – Тошкент: Фан, 1967. – 550 б.
17. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.
18. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1959. – II-III т. – 456 б.
19. Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 1998.
20. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 256 б.
21. Жамолхонов Н. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – 140 б.
22. Кошғарий, Маҳмуд. Девону луғотит турк. – Тошкент: Фан, 1966. – III т. – 463 б.
23. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – 384 б.
24. Маҳмудов Н., Бегматов Э. Тилимизнинг кеча ва кундузи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2010. – №5.
25. Оллаберганова С. Хоразм фольклори тарихидан // Тил ва адабиёт таълими, 2010. – № 6. – Б. 49.
26. Райимов Қ. Ўзбек тилида сўз ясашиши усуллари моделиштириш // Тил ва адабиёт фанини замонавий ўқитиш масалалари: Республика илмий-назарий конференцияси. – Тошкент, 2017. – № 1. – Б. 297-298.

27. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
28. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Тошкент: Университет, 2003. – 600 б.
29. Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент. 1984.
30. Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. М.: Наука, 1966.
31. Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Т.: Маънавият, 2004. – 160 б.
32. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973.
33. Тил – дарё / Тўпловчилар: А. Суюн, А. Султон. – Тошкент: Ғ. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1999. – 24 б.
34. Турсунова (Дадахонова) Т. Лексика вышивалиного искусства в узбекском языке: Автореф. дис... канд. филол. наук. – Ташкент. 1971. – 24 б.
35. Тўрақулов О. Қўқон ва унинг атрофидаги қишлоқларда уй қурилишига оид сўзлар // Қўқон ДПИ ўзбек тили ва адабиёти тўплами. 1971. – Б. 8-10.
36. Усмонова Н. Ўзбек тилининг педагогик терминологияси: Филол. фанлари номзоди ... дис. автореферати. – Тошкент, 1994.
37. Усмонов О., Дониёров Р. Ўзбек тилидаги русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент, 1965. – 580 б.
38. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I – 680 б.; II – 672 б.; III – 688 б.; IV – 608 б.; V – 592 б.
39. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 316 б.
40. Ўзбек фольклори очерклари. – Тошкент: Фан, 1988. – 288 б.
41. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.